

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK -----

Bo‘ronov Ikrom

**ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDAGI
XUSRAV VA FARHOD MUNOZARASINING
QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI**

5A220101 –Adabiyotshunoslik (O‘zbek adabiyoti) mutaxassisligi

**Magistr akademik darajasini olish uchun
yozilgan dissertasiya**

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. Tohirov S.Q.

SAMARQAND - 2018

REJA:**I. MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINING UMUMIY TAVSIFI****II. ASOSIY QISM****1- bob: Xusrav va Farhod timsollari tarixi va badiiyati**

- 1.1. Xusrav va Farhod timsollarining tarixiy va badiiy ildizlari.
- 1.2. Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostonida Xusrav va Farhod timsollari.
- 1.3. XIII-XV asrlar adabiyotida Xusrav va Farhod ziddiyatining badiiy talqinlari.

2-bob: Xusrav va Farhod munozarasining yaratilishi va badiiy taraqqiyoti.

- 2.1. Munozara badiiy asar kompozitsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida.
- 2.2. Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostonida Xusrav va Farhod munozarasi.
- 2.3. Xusrav va Farhod munozaralarida an’ana va ijodiylik.

3-bob: Alisher Navoiy dostonidagi Xusrav va Farhod munozarasida an’ana va badiiy mahorat

- 3.1. Xusrav va Farhod timsollari Alisher Navoiy talqinida.
- 3.2. “Farhod va Shirin” dostonidagi munozara kompozitsiyasining o’ziga xosligi.
- 3.3. Munozarada muallif dunyoqarashi va badiiy mahorati.

III. XULOSA

MAGISTRLIK ISHINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Xalqimizning azaliy orzularini ro'yobga chiqargan milliy istiqlol o'tmish madaniy va ma'naviy merosimizga yangicha, xolis nigoh tashlash imkonini berdi. Buning natijasida besh asrdan beri davom etib kelayotgan navoiyshunoslik yurtimizda yangi manbalar, tadqiqot metodlari, yo'nalishlar bilan tobora takomillashib bormoqda. Zero "avliyolar avliyesi, mutafakkirlar mutafakkiri va shoirlar sultoni" bo'lgan "Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy sha'nu shuhratini dunyoga tarannum qilgan so'z san'atkoridir... olamda turkiy va forsiy tilda so'zlashuvchi biron-bir inson yo'qki, navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa".¹ Darhaqiqat, Alisher Navoiy hayoti va adabiy merosi besh yarim asr davomida turli millat vakillari bo'lgan adabiyotshunos, sharqshunos olimlar tomonidan tadqiq va tahlil etilmoqda. Xususan, Alisher Navoiy ijodining undan oldin yashagan Sharqning buyuk mutafakkirlari, forsiyzabon va turkiyzabon shoirlar adabiy merosi bilan munosabati masalasida bir qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Bular qatorida Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonini shu mavzudagi asarlar bilan qiyosan o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega.

Sosoniylar sulolasining oxirgi yirik hukmdorlaridan biri bo'lgan Xusrav² II Parvez va uning ma'shuqasi Shirin haqidagi rivoyatlar juda qadimdan xalq og'zaki ijodida, solnoma va tarixiy asarlarda, ayrim asarlar tarkibidagi kichik hikoyalarda keng tarqalib keldi.

X-XI asarlarga kelib Eron solnomalari va adabiyotida mashhur va fojiaviy taqdirga ega bo'lgan buyuk hukmdor va sohibjamol, yuksak aql-zakovatli malika Shirin haqidagi rivoyatlarga, g'ayritabiiy kuch-qudratga ega bo'lgan hunarmand, o'z ishqiy yo'lida jonini fido qilgan oshiq Farhod haqidagi rivoyatlar ham kelib

¹Karimov. I.A. Yuksakma'naviyat – yengilmaskuch. -Toshkent, 2008-yil. 47-bet.

² Xusrav va Parvez ismlari manbalarda ikki xil (Xusrav, Parvez) tarzda yozilgan. Biz "Shohnoma"dagi variantni tanladik.

qo‘shildi. Natijada, o‘zining jozibadorligi, murakkabligi bilan jahon adabiy an‘analaridagi eng go‘zal ishqiy rivoyatlardan biriga aylandi.

Nizomiy Ganjaviyning ushbu mavzudagi dastlabki yirik dostoni «Xusrav va Shirin» hamda Amir Xusrav Dehlaviyning «Shirin va Xusrav» dostonlari yaratilgandan keyin esa, ushbu mavzuda doston yozish sharq adabiyotidagi eng boy an‘anaga aylandi. XIV-XVI asrlarda Eron, Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, turk, uyg‘ur, Hind xalqlari adabiyotida birin-ketin «Xusrav va Shirin», «Farhod va Shirin», «Farhodnoma» kabi nomlar bilan dostonlar maydoniga kela boshladi.

Rus olimi G.Y.Alievning ma‘lumot berishicha, adabiyotshunoslikda ushbu mavzuda yozilgan oltmishdan ortiq asar aniqlangan.³ Ular orasida Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni alohida ahamiyatga ega.

“Xusrav va Shirin” mavzusidagi dostonlarni aniqlash, o‘rganish va qiyoslashga doir jahon adabiyotshunosligida ko‘plab ilmiy-tanqidiy asarlar, monografiyalar yozilgan. Ularning deyarli barchasida Xusrav va Farhod munozarasi asarning eng muhim, boshqacha qilib aytganda, kulminatsiyasi ekanligi e‘tirof etiladi. Biroq mavjud ilmiy manbalarda mazkur munozara atroflicha qiyoslangan holda tahlil va tadqiq etilmagan. Buning natijasida, munozara o‘zining asl mohiyatini yo‘qotib, shoh va hunarmand, yoxud ikki tabaqa vakilining ziddiyati va uning maqsadi: «...hokim tabaqaning jirkanchligi va ikkiyuzlamachiligi («...nichtojnostilitsimerie»)ni fosh qilish»⁴ bo‘lib qoldi.

Shundan kelib chiqqan holda, Alisher Navoiy ijodi, aniqrog‘i, uning “Farhod va Shirin” dostonidagi Xusrav va Farhod munozarasini salaflarining asarlari bilan qiyosan o‘rganish navoiyshunoslikning muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Bu, avvalambor Alisher Navoiy asarlarining mazmun va g‘oyaviy mundarijasi, kompozitsion va badiiy barkamolligi haqida to‘laroq tasavvurga ega bo‘lish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, xamsanavislik an‘anasining muhim jihatlaridan biri nazira va badiiy topilma, izdoshlik va o‘ziga xoslik tamoyillari haqida ilmiy mulohaza yuritish, by boradagi nazariy tushunchalarni

³ Алиев Г.Ю. Легенда о Хусраве и Ширин в литературах народов Востока. – М.: Наука, 1960. стр. -163.

⁴Shukitob, 96-бет.

takomillashtirish uchun zamin hozirlaydi. “Xusrav va Farhod” munozarasi Sharq yozma dostonchiligi, masnaviynavisligi tarixida muhim o’ringa ega bo’lgan munozara usulining o’ziga xos namunasidir. Binobarin, uning qiyosiy-tipologik tadqiq etilishi munozara usulining ham janr ham kompozitsion vosita sifatidagi nazariy jihatlarini kengroq yoritish imkonini beradi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi shular bilan belgilanadi.

Mavzuning o’rganilish darajasi. “Xusrav va Shirin” mavzusidagi dostonlarni aniqlash, o’rganish va qiyoslashga doir jahon adabiyotshunosligida ko’plab ilmiy-tanqidiy asarlar, monografiyalar yozilgan. Xususan, chex olimi G.Dudaning «Farhod va Shirin», rus olimlari A.E.Krimskiy va I.Braginskiyning fors-tojik adabiyoti tarixiga bag’ishlangan qator asarlarida shu mavzuga doir ayrim fikrlar bildirilgan.

XX asr navoiyshunosligining poydevorini qo’yg’an olimlardan biri Y.E.Bertels o’zining “Nizomiy” va “Navoiy” monografiyalarida “Xusrav va Shirin” mavzusida yozilgan eng muhim asarlarni tavsiflar ekan Xusrav va Farhod munozarasi haqida ham qisman to’xtalib o’tadi, uni (Nizomiy dostonidagi munozarani) jang maydonidagi qilichlar zarbiga qiyoslaydi: “Farhodning Xusrav bilan suhbat – dostonning eng shoyondiqqat o’rinlaridan biri. Xusravning savollari va Farhodning javoblari qilichbozlarning shamshirlari kabi kesishadi”.⁵ Shu o’rinda qayd etish lozimki, Y.E.Bertelsning “Navoiy” monografiyasi taniqli olim va tarjimat professor I.K.Mirzayev tomonidan tarjima qilinib nashr ettirilganligi adabiyotshunoslik sohasidagi muhim hodisalardan biri bo’ldi.

Ushbu mavzuga bevosita aloqador bo’lgan maxsus tadqiqotlardan biri G.Y.Alievning “Sharq xalqlari adabiyotida Xusrav va Shirin afsonasi”⁶, “Sharq xalqlari adabiyotida Nizomiyning mavzu va sujetlari”⁷, turkman olimi G’.Begdelining «Sharq adabiyotida «Xusrav va Shirin mavzusi»⁸ va o’zbek

⁵Bertels Y.E. Navoiy (Rustilidan I.Mirzayev tarjimasi) – Toshkent: Tafakkurqanoti, 2015. 234-bet.

⁶Алиев Г.Ю. Легенда о Хусраве и Ширин в литературе народов Востока. – М.: Наука, 1960.

⁷ Алиев Г.Ю. Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока. – М.: Изд. Восточной литературы, 1985.

⁸Begdeli G’. Shergedebiyatinda «XosravvaShirin» mo’vzusu. – Baky: Elm, 1970.

adabiyotshunos olimi S.Erkinovning «Navoiy «Farhod va Shirin»i va uning qiyosiy tahlili»⁹ nomli monografiyalarni qayd etib o'tish lozim.

Ozarbayjon adabiyotshunosi M.Rafili Nizomiy va Navoiy asarlari xususida fikr bildirib, “ikki oshiq o'rtasida bo'lb o'tgan keskin aytishuvning maftunkorlik kuchi shu darajada ediki, Nizomiy mavzui bo'yicha o'z ona tilida doston yaratgan ulug' o'zbek shoiri Navoiy shu o'rinlarga qo'l tegizmadi”,- deb yozadi.¹⁰ Ya'ni uning fikriga ko'ra Navoiy munozarani aynan tarjima qilgan. Biroq bu mavzudagi barcha dostonlarni tadqiq etgan Y.E.Bertels Navoiy dostonida “dramatizm, hatto, Nizomiyga qaraganda ham kuchaytirilgan”ligini alohida qayd etadi: “U yerda (Nizomiyda) Farhod faqat raqib bo'lsa, bu yerda – dushman, qurolsiz, zanjirband dushman. Shuning uchun Farhodning tap tortmay qilgan javoblari Navoiyda **yanada katta kuch kasb etadi**”.¹¹ Adabiyotshunos S.Erkinov ham bu fikrni tasdiqlagan holda: “...uchala muallif asarlaridagi lavhalar o'rtasidagi yaqinlik to'g'risida so'zlash bilan bilan bir qatorda o'rtadagi farqlar, har bir muallifning g'oyaviy niyati bilan bog'liq tomonlar, faktlarni umumlashtirishdagi mahorat haqida ham alohida fikr yuritishga to'g'ri keladi” deya ta'kidlaydi. Akademik A.P.Qayumov esa Navoiy dostonidagi munozara haqida: “Farhod bilan Xusrav o'rtasidagi dialog “Farhod va Shirin” dostonining, Navoiy she'riyatining, demak, butun o'zbek adabiyotining eng yorqin, eng mazmundor, eng go'zal va ta'sirli badiiy lavhasidir”¹², - deb yozgan bo'lsa, yetuk olim N.Komilov: “Bu munozara dostonning o'zagidir. Navoiy dunyoqarashi, maqsad-muddaosi xuddi shu yerda aniq ifodalangan”,-deya baho beradi [23. 211].¹³Yana bir ustoz adabiyotshunos A.Haitmetov Navoiy dostonida Farhod bilan Xusravning mashhur dialogi Xoja Yahyo (sarbadorlar harakati sardorlaridan) bilan Tog'aytemur o'rtasidagi dialogni eslatib turadi, deb yozgan edi [44. 280].

Shuningdek, “Farhod va Shirin” dostoniga bag'ishlangan A.Abdug'afurov [6], B.Valixo'jayev [18, 19, 20], T.Jalolov [22] va boshqa ko'plab olimlarning

⁹Erkinov S. Navoiy «Farhod va Shirin»i va uning qiyosiy tahlili.- Toshkent: Fan, 1971.

¹⁰Рафили. Творчество Низами // Низами (Сборник научных статей). IV. Баку, 1947. Стр. 400.

¹¹Bertels Y.E. Navoiy (Rustilidan I. Mirzayev tarjimasini) – Toshkent: Tafakkurqanoti, 2015. 243-bet.

¹²Qayumov A. “Farhod va Shirin” sirlari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti, 1979. 109-bet.

¹³Ko'pmurojaat etiladigan manbalarning adabiyotlar ro'yxatidagi tartibraqamivasahifasikataqavsichidako'rsatilgan.

ilmiy maqola, risola va monografiyalarida Xusrav va Farhod munozarasi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

“Munozara” atamasi, uning janriy va kompozitsion belgilari haqida Y.E.Bertels. I.S.Braginskiy, A.Qayumov, E.Rustamov kabi olimlarning nazariy qarashlari ma’lum. Jumladan, Y.E.Bertels ta’rifiga ko’ra, “Munozara” qasidaning o’ziga xos turidir, nasib esa bahs bo’lib, ikki qarama-qarshi tarafning o’zaro munozarasidir. Tortishuv odatagiday tantanali madh qasidaga bag’ishlangan shaxsni sharaflash bilan tugallanadi [17].

Bu borada, ayniqsa, M.Abduvohidovanning "O'zbek adabiyotida munozara" monografiyasi [5] alohida ahamiyatga ega bo’lib, unda mazkur janrning yuzaga kelishi va taraqqiyot yo’li tadqiq etilgan. Biroq unda munozara asar kompozitsiyasining tarkibiy qismi sifatida emas, alohida janr sifatida asosan XV asrda yaratilgan munozaralar misolida tadqiq etilgan.

Bevosita shu mavzu atrofidagi tahliliy mulohazalar adabiyotshunos S.Tohirovning so’nggi yillarda nashr ettirilgan ilmiy maqolalarida ham mavjud bo’lib, ularda Xusrav va Farhod munozarasining ildizlari hamda bir qator xususiyatlari yoritilgan [34, 35].

Dissertatsiyaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi.

Bugungi kunda adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning istiqbol rejasini mumtoz adabiyotimizning jahon adabiy jarayoni tarixi va taraqqiyotidagi mavzui, mumtoz asarlarimizning mavzu va g’oyalar ko’lami, badiiy ilmiy-nazariy jihatdan xolisona tadqiq etish belgilab beradi. Shundan kelib chiqqan holda, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti o’zbek adabiyoti tarixi kafedrası 2011-2015- yillar uchun “Alisher Navoiy ijodi va adabiy ta’sir masalasi” mavzusini tanlagan bo’lib, mazkur tadqiqot ushbu keng qamrovli muommo bilan bog’liq holda Alisher Navoiy ijodining xamsanavis salafлари bilan ijodiy munosabati masalasini yoritishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsad vavazifalari. Magistrlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostoni tarkibidagi Xusrav va Farhod

munozarasining Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va boshqa forziyzabon shoirlarning asarlaridagi munozaralar bilan qiyosiy tipologik tadqiq etishdir.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan:

- Xusrav va Farhod timsollarining tarixiy va afsonaviy ildizlari hamda adabiyotga kirib kelish, takomillashish jarayonlari yoritilgan ilmiy adabiyotlarni tavsif va tahlil etish, umumlashtirish;
- Badiiy adabiyotda munozara usulidan foydalanish tarixiga oid ilmiy va badiiy manbalarni tadqiq etish;
- Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviyning Xusrav va Shirin haqidagi dostonlari tarkibidagi Xusrav va Farhod munozarasini matn, kompozitsiya, g'oyaviy-badiiy xususiyatlar nuqtai nazaridan o'rganish;
- Alisher Navoiyning Xusrav va Farhod timsollariga munosabati aks etgan adabiy matnlarni atroflicha va xolis tahlil etish;
- "Farhod va Shirin" dostonidagi Xusrav va Farhod munozarasini qiyosiy-tarixiy va germeneytik metodlar asosida tadqiq va tahlil etish;
- Alisher Navoiy yaratgan munozaraning o'ziga xosligi, shoirning bu boradagi badiiy mahorati masalasida muayyan xulosalarga kelish.

Tadqiqotning obyekti va manbalari. Tadqiqotning asosiy obyekti Xusrav va Shirin mavzusida yozilgan dostonlar tarkibidagi Xusrav va Farhod munozarasidir.

Magistrlik dissertatsiyasini bajarishda Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni¹⁴, Nizomiy Ganjaviyning «Xusrav va Shirin»¹⁵, Amir Xusrav Dehlaviyning «Shirin va Xusrav»¹⁶, Qutb Xorazmiyning «Xusrav va Shirin»¹⁷, Abdulloh Hotifiyning «Shirin va Xusrav»¹⁸ dostonlari tanqidiy matnlari asosiy manba vazifasini o'tadi. Tadqiqotda, shuningdek, ilmiy manba sifatida E.E.Bertels

¹⁴AlisherNavoiy. MAT. 20 tomlik.8-tom. – Toshkent: Fan, 1991;AlisherNavoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.

¹⁵Nizomiy Ganjaviy. Xusrav va Shirin. Kuliyot.Jildi yakum. – Dushanbe: Irfon, 1983.

¹⁶Amir Xusravi Dehlaviy. Shirin va Xusrav. Osori muntaxab.Jildi yakum. – Dushanbe: Irfon, 1971.

¹⁷Qutb Xorazmiy. Xusrav va Shirin. Uch bulbul gulshani. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1986. 331-618-betlar.

¹⁸AbdullohiHotifiy. ShirinvaXusrav. – Dushanbe: Irfon, 1981.

[14, 15, 16], G.Y.Aliev [8, 9], G'.Begdeli [13], S.Erkinov [39], A.Qayumov [42], N.Komilov [23, 24], S.Tohirov [34, 35] kabilarning ilmiy ishlaridan o'rni bilan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologiyasi va metodi. Milliy istiqlol mafkurasi hamda yurtboshimizning milliy mafkura va madaniyatga doir dasturiy ko'rsatmalari, gumanitar sohalar va umuman ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlariga oid qarashlari ushbu magistrlik ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Mavzuni izchil va atroflicha yoritish maqsadida ilmiy bilishga asoslangan qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, ilmiy tavsif va sharh metodlaridan foydalanildi. Adabiyotshunoslik sohasida fundamental tadqiqotlar yaratgan Y.E.Bertels, A.Haitmetov, B.Valixo'jayev, A.Qayumov, R.Orzibekov, I.Haqqulov, M.Muhiddinov, D.Salohiy hamda ushbu mavzuga bevosita aloqador bo'lgan S.Erkinov, S.Tohirov kabi olimlarning ilmiy ishlaridagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

Fors-tojik va turkiy dostonchilik (masnaviynavislik) tarixida munozara usuli o'ziga xos o'ringa ega. Qator dostonlarda munozara asar kompozitsiyasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida gavdalanadi.

Sharq mumtoz adabiyotidagi ishqiy-romantik sujetlar orasida Xusrav-Shirin-Farhod uchburchagi ziddiyatga boy ekanligi bilan ajralib turadi.Asarlarda mazkur ziddiyatning turli talqinlari kuzatiladi.

Xusrav va Farhod ziddiyati ular o'rtasidagi munozarada ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Unda nafaqat ikki tabaqa vakili, balki xil dunyoqarash, "ishq" tushunchasiga ikki xil munosabat o'rtasidagi ziddiyat sifatida namoyon bo'ladi.

Munozaralarning matnini qiyosiy-tipologik tadqiq etish, sharhlash, lingvo-poetik xususiyatlarini yoritish har bir muallifning dunyoqarashi, uslubi hamda badiiy mahorati haqida to'laqonli tasavvur hosil qilish imkonini yaratadi.

Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tarkibidagi munozara Nizomiy an'analari asosida yaratilgan bo'lsa-da, g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko'ra oldingi munozaralardan ajralib turadi. Unda Xusrav va Farhod timsollarining

xarakter jihatlari yaqqol namoyon bo'lishi bilan birga, Navoiyning "ishq" konsepsiyasiga xos muhim qarashlari ham o'z ifodasini topgan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Ushbu magistrlik ishida tadqiq etilgan manbalarga adabiyotshunoslikda ko'p marotaba murojaat etilgan bo'lsa-da, "Xusrav va Farhod" munozarasining o'zi alohida tadqiq etilmagan. Bu esa ishning amaliy ahamiyatini belgilaydigan dastlabki omillardandir. Alisher Navoiy dostonidagi munozara ilk marotaba alohida tadqiqot doirasida qiyosan o'rganilmoqda. Tadqiqot materiallari, unda bildirilgan fikr-mulohaza va xulosalar Akademik litsey va KH kolejlari hamda oily ta'lim bakalavriat bosqichining "Filologiya va tillarni o'qitish" yo'nalishi o'quv dasturlariga kiritilgan "Adabiyot", "O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish davri adabiyoti tarixi" fanlari yuzasidan yaratiladigan o'quv adabiyotlarining XII-XV asrlarga oid bob va fasllarini to'ldirish, takomillashtirish imkonini berishi mumkin.

Ushbu tadqiqot ishi kelajakda Alisher Navoiy adabiy merosini xamsanavis shoir va mutafakkirlar ijodi bilan qiyosan tadqiq va tahlil qilishda ilmiy manba vazifasini o'tashi shubhasiz.

Ishning tuzilishi va hajmi. Magistrlik dissertatsiyasi Kirish har biri uchta faslni o'z ichiga oladigan uchta asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyot va manbalar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 82 sahifani tashkil etadi.

1-BOB: XUSRAV VA FARHOD TIMSOLLARI TARIXI VA BADIYYATI

1.1. Xusrav va Farhod timsollarining tarixiy va badiiy ildizlari.

Eron sosoniylari sulolasining yirik vakillaridan biri bo'lgan Xusrav II Parvez tarixda Odil nomi bilan mashhur bo'lgan Xusrav I Anushervonning nabirasi, Hurmuzning o'g'lidir. Hurmuzning vafotidan so'ng lashkarboshi Bahrom Cho'bina isyoni tufayli toj-u taxtdan mahrum bo'lgan Parvez Rum qaysari Mavrikiy yordami bilan 590-yilda Eron taxtiga o'tirishga muvaffaq bo'lib, tez orada katta harbiy qudratga ega bo'ldi va ko'pgina shaharlarni, shu jumladan Rum tarkibida bo'lgan Iyerussalimni ham bosib oldi. Ammo shunday katta qudratga ega bo'lgan hukmdor 628-yilda o'z o'g'li Sheruya tomonidan o'ldirildi.

Xusrav Parvezning murakkab hayoti ko'pgina sabablarga ko'ra tez orada badiiy obraz sifatida adabiyotga kirib keladi.

Birinchidan, Xusrav insoniyat tarixidagi eng taniqli sulolalardan birining vakili edi.

Ikkinchidan, Xusrav obrazining adabiyotga kirib kelishida uning ma'shuqasi, nihoyatda go'zal husn va yuksak aql-zakovatga ega bo'lgan (garchand bu haqda turli ixtiloflar mavjud bo'lsa-da) Shirin bilan bo'lgan ishqiy kechinma va sarguzashtlari katta ta'sir ko'rsatdi.

Uchinchidan u payg'ambar Muhammad (a.s.)ning islomga da'vat qilib yozgan muborak maktublarini yirtib, bu bilan o'zining va sulolasining inqiroziga sabab bo'ladi. Alisher Navoiy bu haqda "Tarixi muluki Ajam"da shunday yozadi: «... ul hazrat (Muhammad (a.s.)) din va islom da'vatig'a noma bitib kishi yibordi. Va ul (Xusrav) bu muzaxrafot (soxta boylik va mavqe) g'ururidin ul hazrat muborak nomasin yirtti va itoat qilmadi. Va o'z mulk va davlatig'a qasd qildi» [48. 230].

Xusrav va Shirin tarixi haqida dastlabki ma'lumotlar Vizantiyalik tarixchi Feofilakt Simokattanining «Tarix» kitobida uchraydi. Simokatta Shirinni nasroniy diniga mansub bo'lgan rum qizi deyishga moyil bo'ladi [38.23]. Muallifi noma'lum

bo'lgan suriya solnomasida Shirin “arameyanka” (oromiy) deb ko'rsatiladi. Biroq Y.E.Bertelsning qayd etishicha bu so'zni “armyanka” (arman qizi) tarzida ham o'qish mumkin ekan. Solnomada Xusrav haqida ma'lumot berilib, uning nasroniy diniga mansub bo'lgan ikki xotini – “arameyanka – Shirin va romeiyanka (rumlik qiz) – Maryam” bo'lganligi qayd etiladi. VII asr arman tarixchisi Sebeosning «Sebeos tarixi» kitobida Xusrav Parvez va Shirin haqida hikoya qiluvchi maxsus fasl mavjud bo'lib, unda Shirinning Sosoniylar davlatiga qarashli bo'lgan Huziston viloyatidan bo'lganligi aytilgan. Umuman, “Xusrav va Shirin” haqidagi manba va tadqiqotlarda Xusrav va uning nasroniy diniga mansub bo'lgan ma'shuqasi Shirin (Sira) rumlik, arman, oromiy yoki eron xalqlariga mansub degan qarashlar mavjud.

Sharqda yaratilgan ilmiy va badiiy manbalarda IX asrning oxirlaridan boshlab Xusrav haqida ma'lumotlar uchraydi.

Muallifi noma'lum bo'lgan «Xudoynoma» va uning ko'plab tarjimalarida (xususan, Hamza Isfahoniyning «Hukmdorlar va nabiylar tarixi» asarida), Al-Johizning «Kitob ul-mahosin val-ezdot» («Go'zal xislatlar va uning aksi») nomli kitobida, Arab tarixchisi Tabariyning «Tarixi rusul val-muluk» (Payg'ambarlar va shohlar tarixi) va uning tarjimasi bo'lgan Bal'amiyning «Tarixi Tabariy» asarida Xusrav va Shirin haqidagi rivoyatlar bor. Bu manbalarda rasmiy sosoniy tarix va xronikalardan farqli o'laroq, Xusrav ideal hukmdor sifatida tasvirlanmaydi. Jumladan, Tabariy Xusrav saltanati haqida yozar ekan, shunday deydi: «Xusrav xalqqa shubha bilan qarar edi. Shohga nomunosib xatti-harakatlari bilan kishilarni kamsitardi. Xusravni ko'pchilikning nafratiga duchor qilgan omillar nimada? Bu haqda Sheruya tilidan quyidagilar aytiladi: Sen bir umrga zindonga tashlagan mahbuslarga, ularning qashshoqlik, ochlik, vatanlaridan, bola-chaqalaridan uzoqlashib ketganliklari to'g'risidagi shikoyatlariga bema'nilarcha javob qilding. Erlari, bola-chaqalari bor ayollarni sevmasang ham senga yoqqani uchun olib kilding, ularni majburan huzuringda tutib turding. Qo'l ostingdagilardan yer jarimasi olishda shafqatsizlik ko'rsatding, qattiqqo'llilik va dahshat bilan ularni xarob qilding. Tang ahvolga tushib qolgan chog'ingda senga bosh-pana bergan, seni dushmanlaring hujumidan himoya qilgan, o'z qiziga uylantirib obro'yingni

ko'targan Rum qaysari Mavrikiyga nisbatan munofiqlik ko'rsatding Uning iltimoslarini yerda qoldirib, o'zingga ham vatandoshlaringga ham kerak bo'lmagan yog'och butni qaytarib bermading.¹⁹ Seni ana shu gunohlaring uchun xudo jazoladi» [38. 196].

Bal'amiyning asarida birinchi marta Farhod nomi tilga olingan. I.Braginskiyning «Iz istorii tadjikskoy narodnoy poezii» nomli asarida “Tarixi Tabariy”dan shunday parcha keltirilgan: «... az bahri Shirin ko'hi Besutunro bikand va az ham parokand va har poraye ki Farhod az on ko'h kanda ast ba dah mard, balki ba sad mard az joy barnatavonand giriftan va imro'z ham chun ast» («Shirin ishqida Besutunni qo'porib tashlar ediki, Farhod parchalagan toshlarni o'nta, balki yuzta pahlavon ham ko'tara olmas edi. Bu toshlar hozir ham bor.

Y.E.Bertels buni keyinchalik qo'shilgan ma'lumotlar deb aytadi [15. 216].

X asr arab tarixchilaridan bo'lgan Ibn al-Faqih Hamadoniyni “Kitob ul-buldon”, Shahobiddin Abu Abdullo Yoqutning “Mu'jam ul-buldon” asarlarida kanal qazish bilan bog'liq voqealar bayon etiladi.

“Parvezning ma'shuqasi xudo yaratgan go'zallarning go'zali edi. Eronliklarning aytishlaricha, Parvezning hayotdan uch nasibasi – xotini Shirin, qo'shiqchisi Borbad, shabdiz nomli oti, shu bilan birga Qasri Shirin deb nom olib qolgan qasri bor edi. Bu ilgari ham keyin ham hech qaysi podshoga nasib bo'lgan emas. Shirin qasri Bog'doddan Hamadonga boriladigan yo'l ustida joylashgan hashamatli binolardan iborat. Ayvonlar, xilvatgohlar, sayrgohlarga ega bo'lgan bu binoning barpo etilishi shunday sodir bo'lgan edi. Xusrav ikki tosh yerga o'ziga bog' qilishni istab bu ishni ming kishiga yuklagan va ularni har kuni non, go'sht va may bilan ta'minlab turgan. Ming kishining yetti yillik mehnati bilan qurilish nihoyasiga yetadi. Shunda bu xabarni shohga yetkazishni Borbaddan iltimos qiladilar. Borbad “Ov bo'stoni” nomi bilan qo'shiq to'qib, uni kuylab, shohni

¹⁹Buo'rinda Navoiy “Tariximuluki Ajam” datilga olgan “ganjibodovard” (shamol keltirgan xazina) nazardatutilgan bo'lsakerak. Vizantiyashohlari (akosir) ning ulkan xazinasirivoyatlargako'rabirshahardan ikkinchishahargadengizyo'libilano'tkazilayotganda qattiqsha molkemalarni Madoyinsohiligasuribkelgan va ular Xusravning mulkiga aylangan. Ular orasida oltin va qimmatbaho toshlardan ishlangan ma'budlar haykallari ham bo'lgan. Xusrav uni qaytarmaganligi uchun Vizantiya bilan o'rtada nizo kelib chiqqan. Navoiyning ma'lumot berishicha bu haykallar Eron malikasi Turondo'xt (Turon qizi) davrida qaytarilgan.

bog'ning bitganligidan ogoh etadi. Bu xabardan shoh nihoyatda xursand bo'lib, ishda qatnashganlarni mukofotlaydi. Mamnun shoh mastlik vaqtida Shiringa murojaat qilib, uning istagini bilmoqchi bo'ladi. Shunda Shirin shohga: shu bog' o'rtasida ikki tosh ariq qazdirsang, ularda sut oqib tursa. Ariqlar o'rtasida esa qasr barpo etilsa, deb aytadi. Podsho buni qabul qiladi. Lekin u nihoyatda mast bo'lgani uchun va'dasini esdan chiqarib yuboradi. Shirin esa buni shohga eslatishga botina olmaydi. U Borbadga o'zining Isfahondagi mulkini hadya etish evaziga ariq haqidagi gapni shohga bir karra eslatib qo'yishni iltimos qiladi. Borbad Shirin istagini bajo keltirib, qo'shiq aytish davomida shohning va'dasini yodga oladi. Podsho unutgan va'dasini birdan xotirga olib, darhol ariq va qasrni qurib bitkazish to'g'risida farmon beradi" [38, 27]. Hikoyada sut arig'i aynan kim tomonidan qazilganligi aytilmaydi. Biroq bu zujet keyinchalik, aynan bo'lmasa-da, barcha dostonlarda takrorlanadi.

Xusrav Parvezning dastlabki tarixiy-badiiy timsolini yaratgan shoir Abulqosim Firdavsiydir. Xusrav sarguzashtlari Firdavsiy "Shohnoma"da hajman eng katta sujetlardan biri sanaladi.

Rus olimi Y.E. Bertels yuqorida tilga olingan monografiyasida "Xusrav va Shirin sujeti tarixi haqida ma'lumot berar ekan, Firdavsiy "Shohnoma"si haqida ham to'xtaladi. Olim Xusrav haqidagi ikkinchi doston "Xusrav Parvez va Shirin dostoni" sujetini muxtasar tarzda bayon etadi. Uning fikricha "... Firdavsiy asarining markazida Xusrav figurasi turadi. Firdavsiy sosoniylar sulolaviy xronikasini yorqin badiiy bo'yoqlarda she'riy yo'l bilan bayon etadi... (Biroq) U o'z oldiga ruhiyat muammosini qo'ymaydi" [15. 218].

S. Erkinov "Farhod va Shirin" dostonining qiyosiy tahlili haqidagi monografiyasida Firdavsiy yaratgan sujetni chetlab o'tgan. Zero unda Farhod timsoli ishtirok etmagan edi.

Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"sidagi Xusrav Parvez dostoni qisman Sh. Shomammedov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan hamda 1984-yilda nashr ettirilgan [51. 633-679]. Biroq bu kitobda "Xusrav Parvez podshohligi" dostonining bir qismi, aniqrog'i, Xusravning taxtga chiqishidan boshlab Bahrom

Chubina bilan jangiga qadar bolgan voqealar kiritilgan. Binabarin, bu qismlar Xusrav shaxsiyati va timsoli haqida to'laqonli tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi.

Firdavsiy dostonining 1966 yilda Tojikiston FA ilmiy xodimlari K.Ayniy, Z.Ahroriy, B.Sirus, A.Devonaqulov tomonidan tayyorlangan 9 jilddan iborat nashrida Xusrav Parvez sarguzashtlari sakkizinchi va to'qqizinchi jildlardan o'rin olgan.

Xurmuz shohligi bayon etilgan sakkizinchi jildda Xusravning tug'ilishi, bolalik va yigitlik davri, xususan, aysh-ishratga berilganligi tasvirlanadi:

Hame romishu bazmu may kor bud,
Ba yak hafta du ro'z bashkor bud. [52. 595].

Mazmuni: Ishi doimo aysh-ishrat, bazm va mayxo'rlik edi. Haftada ikki kun ovga chiqar edi.

Eron taxtini qo'lga kiritish payida bo'lgan sarkarda Bahrom Chubinaning hiylasi tufayli Xurmuz o'z o'g'lidan shubhalana boshlaydi va uni qatl etishga farmon beradi. Bu haqda xabar topgan Xusrav Ozar yeriga qochadi. Rum Qaysari (Kisro), Sheroz va Kirmon hukmdorlari unga o'z yordamini taklif etadi. Buning natijasida, Xusrav ancha qudratli qo'shinga ega bo'ladi.

“Shohnoma”ning to'qqizinchi jildida Xusrav Parvez hukmronligi davri bilan bog'liq ikkita alohida doston o'rin olgan:

1. “Podshohii Xusravi Parvez” (“Xusrav Parvez podshohligi” [52. 7-285].
2. “Dostoni Xusravi Parvez va Shirin” (“Xusrav Parvez va Shirin dostoni” [53. 286-343].

E'tiborli tomoni, ikkala qism ham “Og'ozi doston” (Dostonning boshlanishi) deb nomlangan bob bilan boshlanadi.

Xusrav sarguzashtlarining xotimasi, ya'ni taxtdan ag'darilib, saroy a'yonlarining talabi bilan o'g'li tomonidan qatl ettirilishi esa “Shohnoma”ning keyingi - “Shiruya podshohligi” dostoni tarkibida berilgan.

Y.E.Bertels “Nizomiy” hamda “Navoiy” monografiyalarida Firdavsiy “Shohnoma”sidagi “Xusrav Parvez va Shirin dostoni” sujetini muxtasar tarzda quyidagicha bayon etadi:

Xusrav Shiringa o'spirin yoshida uylangan. Ammo otasining vafotidan keyin kechgan isyonchi amaldorlar qarshiligini bostirgach, u taxtga o'tiradi hamda uni (Shirinni) o'zidan uzoqlashtiradi va oxir-oqibat uni unutadi. Bir kuni Xusrav ovga bormoqchi bo'ladi. Voqeadan xabar topgan Shirin o'zining eng yaxshi kiyimlarini kiyib, tomga chiqadi va Xusrav yonidan o'tayotganda otini aytib chaqiradi. Shunda u o'zining xayolidan faromush bo'lgan muhabbatni eslaydi va Shirinni Eronning malikasi etmoqchi bo'ladi. Bunday qaror eronlik amaldorlarga kuchli qarshilik hissini uyg'otadi. Xusrav huzuriga butun boshli vakillar guruhi keladi va Shirinning past tabaqadan ekanligiga ishora qilib, uni bu harakat oqibatlaridan ogohlantiradilar [14. 231].

Xusrav amaldorlarga birdan javob bermaydi, ularga ertasi ertalab kelishni buyuradi. (Ertasi ertalab) amaldorlar va ruhoniylar kelganda xizmatkorlar ularga bir oltin jomda qaynab turgan qonni uzatadi. Barcha nafrat bilan yuzlarini burishadi. Bir oz fursat o'tgach o'sha jomni yana olib kelishadi. Biroq bu safar u yuvilgan va xushbo'y may bilan to'ldirilgan edi. Xusrav o'z ramzlarini izohlaydi. Bu jom – Shirin, -deydi u. – U men tomondan xo'rlangan holda shaharda yashaganda zahar (qon) to'la jom misoli eda. Mening oldimga saroyga kelib, mening xotinim bo'lgach, u may solingan jomga aylanadi. Amaldorlar o'z da'volaridan voz kechishadi va nikoh marosimi o'tkaziladi [15. 217].

Xusrav bungacha Vizantiya shohining qizi Maryamga ham uylangan edi. Shirin Xusravni rashk qilib, uni zaharlab o'ldiradi. Xusravning Maryamdan Shiruya ismli o'g'li bor edi. Bu qotillikdan keyin Xusrav Shiruya tomonidan dushmanlik harakatlari boshlanib ketishidan xavfsirab, uni saroylardan biriga qamab qo'yadi. Bu yerda u, garchi u podshohlik ne'matlari bilan ta'minlanib turgan bo'lsa-da, zindonda yashagan kabi yashaydi.

Xusravning boshqaruvidan norozi a'yonlar fitna uyushtiradilar va uning o'rniga Shiruyani taxtga o'tqazadilar. Natijada, Xusrav qochishga majbur bo'ladi

va o'zining shahardan tashqaridagi bog'laridan birida yashirinadi. Ochlik uni bir bog'bonni qimmatbaho buyumlarini sotish va puliga oziq-ovqat keltirish uchun bozorga jo'natishga majbur qiladi. Shu buyumlarga qarab uning yashiringan joyini topib oladilar va poytaxtdagi qal'alardan birida qamab qo'yadilar. Shu orada Shiruya qal'aga qotil jo'natadi, shu tarzda otasini gumdon qiladi va Shiringa uylanmoqchi bo'ladi. Shirin uning hukmida bo'lgani bois o'z mulkiga to'liq egalik qilish huquqi berilsa, rozilik berishini aytadi.

Bunday huquq kafolatlangandan keyin Shirin barcha qullarni ozod qiladi, boyligini beva-bechoralarga tarqatadi. Keyin Xusravning qabriga kirib, zahar ichadi [14. 231].

Firdavsiy dostoni, aniqrog'i, dostonlarida Xusrav Parvez sarguzashtlari ilk bora tugallangan, muayyan sujet va kompozitsion butunlik kasb etgan holda namoyon bo'ladi. Shahzoda, podshoh hamda shohlikdan ag'darilgan Xusrav mazkur asarda o'zining barcha fazilat va illatlari, yutuq va kamchiliklari bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Muallif Xusrav timsoliga romantik tus berish, o'z ideallarini singdirishga ham uni oshiq sifatida talqin etishga ham intilmaydi.

Xusrav va Shirin sarguzashtlariga Farhod timsolining kelib qo'shilishi masalasi adabiyotshunoslikning ancha jumboqli muammolaridandir. Sharq adabiyotida Farhod obrazi va u bilan bog'liq bo'lgan qissaning tug'ilishi va taraqqiyoti o'z tarixiga ega. Farhod ulug' insoniy muhabbat mehnat va ijodga ilhomlantirgan faol inson sifatida alohida ajralib turadi. Mehnat mavzuyi Sharq adabiyotida chuqur ildizga ega, buni "Avesto"da ham ko'rishimiz mumkin. Inson madaniyatining muhim belgilaridan biri – mehnat bilan bog'langan Farhod kulti O'rta Osiyoda, Ozarbayjon, Eron, Turkiyada ham tarqalgan edi. Farhod nomi bilan atalgani holda afsonaga aylanib ketgan O'zbekistonning Bekobod rayonida joylashgan Farhod tog'i, qadimgi Xorazmda bunyod etilgan XII asrga oid Devqal'a, Qoshg'ardagi Farhod qurgan Ming uy va boshqa shu kabi geografik nomlar va inshootlar bevosita Farhod kul'ti bilan bog'lanadi.

Adabiyotshunos S.Erkinov qadimgi yozma va og'zaki manbalarda Farhod nomi bilan mashhur bo'lgan bir necha shaxslarni sanab o'tadi [38. 19-20]. Rus

olimi G.Aliyev Farhod haqidagi afsonalarning “Xusrav va Shirin” qissasiga kelib qo’shilmasdan ilgari mustaqil ravishda yashab kelganligini qayd etadi va uni Xusrav va Shirin haqidagi dostonga asos bo’lgan tarixiy voqealardan ancha keyin, ya’ni VI asrdan keyin yaratilgan folklor qahramoni deyishga moyillik ko’rsatadi. Prof.I.Braginskiy “Shohnoma” va unga yaqin turgan bir qancha epik asarlar asosida afsonaviy sak qahramonlarining ro’yxatini tuzganda Farhod ismli qahramonni ham eslaydi. Muallufning xabar berishicha, Farhod Zavoraning o’g’li, Zolning nabirasi bo’lgan.Afsuski bu haqda to’liq ma’lumot saqlanmagan.“Shohnoma”da Afrosiyobning lashkarboshilari haqida so’z borganda ham uning Farhod ismli jangovor sipohsalori bor edi deb eslanadi.Akademik V. Bartoldning “Mo’g’ullargacha bo’lgan Turkistondagi xristianlik haqida” deb nomlangan asarida IV asrda Suriyada yashagan istedadli yozuvchi Farhod haqida ma’lumot bor.

Bularning Farhodi ko’hkan bilan umumiyliigi bor yoki yo’qligi haqida uzil-kesil xulosaga kelish qiyin. Har holda Markaziy Osiyo va Kavkaz xalqlari folklorida ancha qadimdan mavjud bo’lgan Farhod obrazi X-XI asrlardan boshlab Xusrav va Shirin voqyealariga kelib qo’shildi va ko’plab ijodkorlarni qalam tebratishga undagan, ularning dunyoqarashi va mahoratini namoyish etish uchun juda boy va qulay vosita bo’lgan Xusrav-Shirin-Farhod ziddiyati, uchburchagini yuzaga keltirdi.

Ushbu obrazlar o’rtasidagi ziddiyat, uning mohiyati va xususiyatlari turli ijodkorlar tomonidan turlicha talqin qilindi.

X-XII asrlarda yashab ijod qilgan Adib Sobir, Amir Abulhasan Og’adji, Qatron Tabreziy, Hoqoniy Shirvoni, So’zaniy kabi ko’plab shoirlarning lirik she’rlarida, Faxriddin Gurgoniyning «Vis va Romin» dostonida, Saolibiyning «Shohnomai Saolibiy» asarida Xusrav, Shirin va Farhod obrazlari tilga olinadi. Biroq bu obrazlarga munosabat keyingi an’analardan farq qiladi.

G’.Begdelining tilga olingan tadqiqotida Farhod timsolini xalq og’zaki ijodidan yozma adabiyotga olib kirgan ilk muallif sifatida Qatron Tabreziy qayd etiladi hamda uning she’riyatidan bir necha misollar keltiriladi:

Husudash bod chun Farhod bar bistar ba ranj andar,
Valiash bo nishotu noz chun Parvez bo Shirin.

Mazmuni: (Unga) *Hasad qilganlar Farhod kabi ranju mashaqqatda qolsin. Do'stlari Parvezu Shirin kabi shod-u xurramlikda yashasin.*

Hosidi o' hamisha chun Farhod,
Nosih o' hamisha chun Shirin.²⁰

Mazmuni: *Hasad qiluvchi doimo Farhoddek, nasihatgo'y esa doim Shirinday bo'lsin.*

Hamesha shohi Shaddodi zi baxti xeshtan shod ast,
Ba mulk andar chu Parvez astu batxohash chu Farhod ast.²¹

Mazmuni: *Shaddodiy shohi doimo o'z baxtidan shoddir. O'z mulkida u Parvez kabi, dushmanlari esa Farhoddekdir.*

To hadisi Xusrav-u Farhod boshad dar jahon,
O' ba soni Xusrav-u dushman-sh chun Farhod bod.

Mazmuni: *Toki olamda Xusrav-u Farhod so'zi (hikoyasi) bor ekan, u Xusravdek, dushmani esa Farhoddek bo'lsin.*

Qatron Tabreziyning bu misralarida Farhod shohning baxti, muhabbatiga hasad qiluvchi va o'zining shu hasadi tufayli iazob-uqubatlarga duchor bo'lgan kishi sifatida talqin etilgan.

Shu bilan birga, ba'zi shoirlarning asarlarida Farhod Shirin ishq tufayli ranj-u alam, azobga duchor bo'lgan oshiq sifatida ham tasvirlanadi:

Ranji Farhod ast bar man oshiqiro gohu goh,
Komroni xezad az ma'shuq chun Shirin maro.

²⁰Begdeli G'. Sherg edebiyatinda «Xosrav va Shirin» mo'vzus. – Baky: Elm, 1970. 35-bet. Matnlar arab grafikasida berilgan.

²¹Shu yerda.

Mazmuni: *Oshiqlik menga har dam Farhod azobini keltiradi. Shirin singari mening ma'shuqam ham murodimni hosil qilsin.*

Yuqorida tilga olingan QatronTabreziyning o'zi yana bir baytida Farhod va Shirin obrazlarini talmeh sifatida yonma-yon keltiradi:

Hama shiriniyi Shirin ba gul dodast pindori,
Bar o' nolon hazor bulbul chu Farhod ast pindori.²²

Mazmuni: *Shirinning shirinligini (go'zalligini) gulag bergan. Minglab bulbullar unga Farhod singari nola qiladi.*

Ayniqsa, Xoqoniy Shervoniy ijodida tez-tez bu obrazlarga ba'zan talmeh sifatida ba'zan esa to'g'ridan-to'g'ri murojaat etiladi. Xususan, uning «Madoyin xarobalari» degan qasidasida va ayrim to'rtliklarida Xusrav va Farhod nomlarini uchratish mumkin:

Ko'hkan dar ishq Shiri g'ayrate gar doshti,
Naqshi Shirinro bachashmi digaron nagzoshti.
Bud beg'ayratki, naqshi yorro bar sang kand,
Var ba lavhi siyna kandi surati pindoshti.

To'rtlikning mazmuni quyidagicha: *«Ko'hkan (Farhod) agar Shirin ishqida g'ayratli bo'lsa edi, buning suratini hammaga ko'z-ko'z qilmas edi. G'ayratsizligidan yorining suratini toshda qoldirdi. Aks holda qalb taxtasida qoldirgan bo'lar edi».*

Xoqoniyning fikriga ko'ra Farhod Shirin xayolini (suratini) qalbida emas, toshda qoldirdi va bu bilan uni odamlarga ko'z-ko'z qildi. Sh utufayli ma'ni emas, surat oshig'i bo'lgan Farhod Shirin ishqiga loyiq bo'lolmadi.

²²Shu kitob, 35-bet.

Bu mulohazalar ham ancha diqqatga sazovor bo'lib, dostonlardagi Xusrav, Farhod va Shirin obrazlarini tahlil va talqin qilishda buni ham e'tiborda saqlash lozim bo'ladi.

XI asrda saljuqiylar saroyida faoliyat olib brogan mashhur vazir Nizomulmulk «Siyosatnoma» kitobida «Xusrav va Shirin» hikoyasiga ham murojaat etadi. Yirik mutafakkir hukmdorning ayollarga munosabati haqida maxsus fasl ajratib, shunday hikoyat keltiradi: “Va digar hadisi Xusrav va Shirin va Farhodi Samri ma'ruf ast, ki chun Xusrav Shirinro chunin do'st dosht va inon ba dasti Shirin dod va hama on kard, ki o' guft. Lojaram Shirin daler gasht va bo chun o' podshohe mayl bo Farhod kard”.²³ (Mazmuni: *(Bu haqda)boshqa bir Xusrav Shirin va afsonaviy Farhod haqida hikoyat ham bor. Go'yo Xusrav Shiringa shu darajada muhabbat bog'lagan ediki, unga ixtiyorini berib qo'ydi. U nima desa shuni qilar edi. Bundan Shirin quvvatlandi (o'zidan ketti) va Xusravdek bir shoh huzurida turib Farhodga ko'ngil qo'ydi*).

Demak Farhod, Shirin hamda Xusrav shaxslari yoxud timsollariga hamma davr shoirlari ham birdek munosabatda bo'lmaganlar. Bundan esa Nizomiy Ganjaviy – bu mavzuda ilk marotaba alohida yirik hajmli asar yaratishni niyat qilgan mutafakkir oldida qanchalik murakkab vazifa turganligini his qilish qiyin emas.

²³Nizomulmulk.Siyosatnoma.– Dyshanbe: Adib, 1989. 143-sah.

1.2. Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostonida Xusrav va Farhod timsollari.

Xusrav-Shirin-Farhod uchburchagi asosida dastlabki yirik doston yaratgan va boy an'anaga asos slogan ijodkor ozor mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi Nizomiy Ganjaviydir. Uning 1180 yilda yozib tugatilgan «Xusrav va Shirin» dostoni «Panj Ganj»ning ikkinchi qismi sanaladi. Nizomiyning dostoni tez orada forsiyzabon va turkiyzabon xalqlar orasida katta shuhrat qozondi. Yuqorida ham qayd etganimizdek, rus olimi G.Y.Aliyev adabiyotshunoslikda ushbu mavzuda yozilgan oltmishdan ortiq asar aniqlanganligini ma'lum qiladi [6. 163].

Nizomiy Ganjaviy o'z dostonini yaratishda Xusrav haqidagi sosoniy solnomalar va tarixiy asarlardan tashqari turkiy va forsiy xalqlarning og'zaki ijodidan ham unumli foydalandi. Shu bilan birga, u o'z dostonida Firdavsiy va uning «Shohnoma»si haqida ham to'xtalib o'tadi:

Hakime k-in hikoyat sharh kardast,
Hadisi ishq az eshon tarh kardast.

Chu dar shast o' fitodash zindagoni,
Xadang aftodash az shasti javoni.

Naguftam har chi dono guft az og'oz,
Ki farrax nest guftan guftaro boz [59.12].

Mazmuni: Bu hikoyatni sharhlagan donishmand undan ishq so'zini (hikmatini) olib tashladi. Uning yoshi oltmishga borib qolganligidan, yigitlik o'qi kamonini tark etgan edi. Donishmand aytgan so'zlarni men aytmadim. Zero aytilganni takrorlash maqtangulik ish emas.

Chindan ham Nizomiyning asari ko'p jihatlari bilan «Shohnoma»dagi «Xusrav va Shirin» dostonidan farq qiladi. Bularning eng asosiysi «Shohnoma»da Farhod

tilga olinmaydi.²⁴Bu esa Nizomiyning «Shohnoma»dan tashqari boshqa manbalardan ham foydalanganligidan darak beradi.

Taniqli sharqshunos va tasavvufshunos A.Y.Krimskiy Nizomiy Ganjaviyning «Xusrav va Shirin» dostonini: «Allohga intilayotgan inson ko'nglining majoziy tasviri» («Allegoricheskoe izobrajenie stremleniya dushy k chelovecheskuyu bogu»), deb ta'riflaydi [6. 34]. Bu ta'rifda qaysidir ma'noda asos bor, deb aytish mumkin.

Firdavsiydan farqli o'laroq, Nizomiy Ganjaviy «Xusrav va Shirin» dostonida «ishq» tushunchasi, uning ijtimoiy, falsafiy va tasavvufiy mohiyati ta'rifi va talqiniga alohida e'tibor qaratadi. U doston muqaddimasida ishq ta'rifida shunday yozadi:

Zi so'zi ishq behtar dar jahon chist?

Ki be o' gul naxandid, abr nagrist [59. 24].

Jahonda ishq taftidan yaxshiroq nima bor? Usiz na gul kuladi (ochiladi), na bulut yig'laydi (yomg'ir yog'adi).

Kase, k-az ishq xoli shud fusurdast,

Garash sad jon buvad, be ishq murdast [59. 25].

Ishqdan xoli bo'lgan kishi umrini behuda o'tkazuvchidir. Yuzta joni bo'lsa ham, ishqsiz u o'likdir.

Baytlardan ma'lum bo'ladiki, dostonda avom ishqiy yoki «bulhavaslik» emas, Navoiy ta'biridagi «pok mazhar»ni sevish orqali mahbubi haqiqiy jamolidan bahra olish haqida kuylanadi. Xusrav va Farhod munozarasi shu fikrlarni ifodalashning eng muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Nizomiy Eron solnomalari va adabiyotidagi Xusrav Parvezni buyuk hukmdor sifatida tasvirlash an'anasini saqlab qoladi va uning Shirin bilan bo'lgan

²⁴«Shohnoma»da Xusravning lashkarboshilaridan biri bo'lgan Farhod tilga olinadi. Biroq uning toshyo'nar Farhod bilan aloqasi haqida ma'lumot yo'q.

munosabatiga asosiy e'tiborni qaratadi. Nizomiyni dostonida asosiy obraz Shirin bo'lib, u asar voqyealarini rivojlantiruvchidir. Muallif mohirlik bilan erka, shaxsiyatparast, hayot qiyinchiliklaridan bexabar, boshqalarning ahvoli bilan qiziqmaydigan shahzodaning o'z ma'shuqasi ta'sirida insoniy kamolot sari ko'tarilib borishini tasvirlaydi. Adabiyotshunos N. Mallayevning fikriga ko'ra "Bu obraz qiyofasida biz ikki Xusravni: Ishqda beqaror, ishratparast va zolim Xusravni, sadoqatli oshiq va adolatli podsho bo'lgan Xusravni ko'ramiz. Ikki Xusrav o'rtasida uzoq va qattiq kurash boradi, Uning dam salbiy tomonlari, dam ijobiy tomonlari ustun chiqadi."²⁵

Bo'lajak humdor sifatida tarbiyalanayotgan shahzoda Parvez bir kuni ovga chiqadi. Qandaydir bir qishloq yaqiniga borganda u chodir qurib bazm uyushtiradi. Qorong'i tushgach, o'sha qishloqdagi uylardan birida tunash uchun kiradi va yana bazmni davom ettiradi. Shu payt uning oti ipini uzib, uy egasining ekinzoriga kiradi va uni payhol etadi, Xusrav xizmatkorlaridan biri mast holda bir kishining uzumzoriga kirib hali yaxshi pishib yetilmagan uzumlardan uzadi. Ertasi ertalab Xusravning otasi Xurmuzga bo'lgan voqyealarni yetkazishadi:

Gar in begonaye kardi na farzand,
Biburdi xonumonashro xudovand.

Zanad bar har rage fassod sad nesh,
Vale dastash bilarzad bar ragi xesh.

Mazmuni: Agar bu ishni o'zfarzandi emas, begona kishi qilganda, podshoh uni xonumonidan ayirardi. Tabib minglab tomirlarga nesh uradi, biroq o'z tomiriga kelganda qo'li qaltiraydi.

Bunday kinoya shoh Xurmuzni g'azabga keltiradi. U Xusrav otining tuyog'ini kesishni, uzumzorga kirgan qulni uzumzor egasiga berishni, Xusravning tojini uy egasiga berishni, mutrib (sozanda)ning tirnog'ini kesish, changning torlarini uzish

²⁵Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1976. 243-b.

hamda Xusravni uy qamog'ida asrashni buyuradi. Shu kecha Xusravning tushiga bobosi Anushervoni Odil kirib unga taskin beradi hamda bo'lajak voqyealar haqida bashorat qiladi.

Dostonning shungacha bo'lgan qismida Shirin timsoli ishtirok etmaydi. Bu qismlarni Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidagi sujetning dastlabki qismi, ya'ni Farhodning oynada Shirinni ko'rgunga qadar bo'lgan voqyealar bilan qiyoslaganda ikki mutafakkir shoirning o'ziga xos uslubi namoyon bo'ladi. Navoiyning dostonida shahzoda Farhod har qanday illatlardan xoli, shaxs sifatida shakllangan bo'lsa, Xusravda hali buni ko'ra olmaymiz. U aksariyat yoshlar, ayniqsa, shahzodalarga xos tarzda o'yin-kulgiga o'ch, shaxs sifatida shakllanmagan va unda biron bir xarakter namoyon bo'lganligi kuzatilmaydi. Bu esa navoiyona romantizmning Nizomiya xos realizmdan farqli jihatidir.

Y.E. Bertels Nizomiyni dostoni haqida gapirib, u «Firdavsiy qissasining deyarli biron tadetalini takrorlamaydi» («NizaminepovtorilpochtiniodnoydetalirasskazaFirdausi») deya xulosa bildiradi [15. 224]. Biroq bu o'rinda olim Firdavsiy asaridagi Xusrav bilan bog'liq faqat ikkinchi dostonni e'tiborga olgan ko'rinadi. Zero yuqorida ko'rib o'tganimizdek, shahzoda Xusrav tabiatiga xos bo'lgan bu jihatlar Firdavsiy tomonidan ham qayd etilgan edi:

Hame romishu bazmu may kor bud,

Ba yak hafta du ro'z bashkor bud. [52. 595].

Mazmuni: Ishi doimo aysh-ishrat, bazm va mayxo'rlik edi. Haftada ikki kun ovga chiqar edi.

Xusravning yaqinlari orasida Shopur ismli rassom va jahongashta sayyoh bor edi. U naqqoshlik san'atini Chinda Moniydan o'rgangan edi. U o'z sarguzashtlari haqida so'zlar ekan Kaspiy dengizi sohillaridagi tog'liklardan birida Mihinbonu («Buyuk malika») laqabli malika Shamira hukmronlik qiladigan yurt borligi, Mihinbonuning go'zallikda tengsiz bo'lgan jiyani Shirin hamda shamolday

uchadigan Shabdiz ismli oti haqida so'zlab beradi. Bu hikoyat Xusravning qalbida Shiringa nisbatan shavq uyg'otadi.

Xusravning dushmanlari uni shoh Xurmuz oldida badnom qilishga intilib, uni isyonkorlikda hatto o'z nomi bilan tanga zarb etganlikda ayblaydi. Xusrav hayoti xavf ostida qolgan ligini sezib oddiy askar qiyofasida Ozarbayjonga yo'l oladi.

Firdavsiyning dostonida mazkur voqealar Eron taxtini qo'lga kiritish payida bo'lgan sarkarda Bahrom Chubina bilan bog'langan. U Xurmuz bilan Xusrav o'rtasida nizo chiqarish maqsadida Xusrav nomiga tanga zarb etadi. Buning natijasida Xurmuz o'z o'g'lidani shubhalana boshlaydi va uni qatl etishga farmon beradi. Bu haqda xabar topgan Xusrav Ozar yeriga qochadi.

Demak Firdavsiyning dostonida mavhum bo'lib qolgan masala, ya'ni Xusravning nima uchun aynan Ozarbayjonga qochganligi Nizomiyni asarida mantiqiy asos kasb etadi. Bunda Xusrav nafaqat siyosiy maqsad yoki o'z jonini saqlab qolish, balki Shopur ta'riflab bergan beqiyos go'zallik sohibi Shirin bilan uchrashishni ham maqsad qiladi.

Dostonda Xusrav bilan Shirinning ilk uchrashuvi o'ziga xos tarzda berilgan. Madoyindan qochayotgan Xusrav kechasi o'rmondan o'tib borayotib oy yog'dusida ko'lda cho'milayotgan malaksiymo xilqat – Shiringa ko'zi tushadi. Uning yuzi sochlari bilan to'silganligi uchun taniyolmaydi. Shirin ham (Shopurning ko'rsatgan surati va tavsiflaridan Xusravni sevib qolgan Shirin Madoyinga yo'l olgan edi) oddiy askar kiyimidagi Xusravni tanimaydi.

Biroq ta'kidlash joizki, bo'lg'usi hukmdor sifatida tarbiyalangan Xusrav ishqning achchiq nash'asini totmagan, oshiqlik martabasidan uzoq bo'laturib Shiringa mayl ko'rsatadi. Uning bu boradagi kamchiligi, ayniqsa, asar syujetiga Farhod timsolining kirib kelishi bilan yaqqol namoyon bo'ladi.

Nizomiyni dostonida Farhod Shirin uchun sut arig'i qazish ehtiyoji tufayli asar sujetiga kirib keladi. «Shoir Farhodni Shopur tili bilan tanishtirar ekan, dastlab qahramonning ma'naviy dunyosini tasvirlash orqali o'quvchi ko'zi o'ngida yuksak iste'dod egasi obrazini yaqqol gavdalantirishga erishadi» [38. 35].

Ki hast injo muhandis mardi ustod,
Javone nomi o' farzona Farhod.

Ba vaqti handasa ibratnamoyi,
Majasti donu Iqlidis kushoyi...

Ba san'at dastbo'sandash hama Rum,
Ba tesha sangi xororo kunad mum.

Mazmuni: *Bu yerda bir ustod muhandis bor. U Ismi donishmand Farhod bo'lgan yigitdir. Handasa vaqtida barchaga ibrat bo'lgulik, Majastiy va Iqlidis sirlaridan ogoh.*

Uning san'atiga butun Rum tan bergan (aynan «qo'lini o'padi»), tesha bilan qattiq toshni mumga aylantiradi.

«Nizomiy Farhod portretini chizar ekan, statik holda uning tashqi sifatlarini qayd etish bilan cheklanmaydi. Adib ideallashtirish prinsipi asosida yaratgan obrazining jonli, psixologik portretini gavdalantirishga ham harakat qiladi» [38. 37].

Farhod hayotda bilim va hunardan boshqa hech narsa orttirmagan, ko'ngli Shirin ishq bilan to'la, shu tufayli ishq yo'lida har qanday to'siqni ham yenga oladigan, bu yo'lda hatto jonini ham qurbon qilishga tayyor bo'lgan, hech kim va hech narsaga bog'lanmaganligi tufayli ishq yo'lida oltin bilan tuproqni teng ko'radigan inson obrazi. Shu yerda Nizomiy o'zini oshiq deb hisoblovchi, aslida havasga berilgan inson bilan, oshiqlik martabasida yetuklikka erishgan inson, qolaversa, surat ishq bilan ma'ni ishq o'rtasidagi tafovutni yorqin ifodalab beradi. Bu holat, ayniqsa, Xusrav bilan Farhod o'rtasidagi munozarada yaqqol aks etadi. Xusrav Farhodning Shiringa bo'lgan munosabatidan xabardor bo'lgach, rashk o'ti uning vujudini qamrab oladi. U Farhodni saroyiga chaqirtiradi va shoh sifatida unga o'z hukmini o'tkazishga harakat qiladi. Biroq:

Chu ojiz gasht Xusrav dar javobash,
Nayomad besh pursidan savobash.

Ba yoron guft: k-az xokivu obi,
Nadidam kas bad-in hozirjavobi. [59. 217]

Mazmuni: *Xusrav ortiq savol berishdan ojiz qoldi, yaqinlariga qarab: “quruqlik va suvda bunday hozirjavobroq kishini kormaganman”.*

Farhodning Behistun tog’ida o’zi toshni yo’nib chizgan Shirin surati oldidagi monologi dostonidagi eng ta’sirli o’rinlardandir:

Agar dar teg’i davron zahmate hast,
Charo burrad turo noxun, maro dast.

V-agar be mayl shud pistoni gardun,
Charo baxshad turo shiru maro xun... [59. 221].

Zi Parvezu zi Shirinu zi Farhod,
Hama dar harf panjem, ey parizod.

Charo chun nomi har yak panj harf ast,
Ba burdan panjai Xusrav shigarf ast?[59. 223].

Mazmuni: *Agar davron tig’ining rahmati bo’lsa, nega sening tirnog’ingni, mening esa qo’limni kesadi. Agar gardun ko’kragi o’z mayli bilan harakatlansa, nega senga sut nasib etdi, menga esa qon (yutmoq).*

Ey parizod, Parvez, Shirin, Farhod - hammamizning ismimiz beshta harfdan iborat. Har birimizning ismimiz besh harfdan iborat bo’lgani holda, nega Parvezning panjasi qudratliroq bo’ldi.

«Rashk o'tida yongan Xusrav Farhodni makr-hiyla bilan halok etadi va shoir talqinida umrining oxiriga qadar Farhod xuni uchun «javobgar» bo'lib qoladi» [38. 34].

Nizomiyning favqulodda mahorati shundaki, Xusrav timsolining takomillashuvi, dinamikasini yorqin hayotiy misollar bilan ko'rsatib beradi. Bu borada, ayniqsa, Xusrav sarguzashtining oxirgi lavhasi e'tiborli.

Xusravni taxtdan ag'dargan o'g'li Shiruya uni Shirin bilan birga zindonband etadi. Biroq bu bilan qoniqmagan padarkush o'g'il qotil yuborib otasining joniga qasd qiladi. Xanjar zarbidan uyg'ongan Xusrav jon talvasasida Shirinni uyg'otmoqchi bo'ladi. Biroq bir necha kundan beri uxlay olmagan, endigina uyquga ketgan Shirinni bezovta qilishni istamagan Xusrav ovoz chiqarmay jon taslim etadi. «Nizomiy xudbin, o'z maishatidan boshqa narsani o'ylamaydigan shahzodaning qayta tug'ilishini ajoyib tarzda namoyish etadi. Xusrav shu onda qahramon darajasiga ko'tariladi» [15. 226].

Demak Nizomiy talqinida Xusrav faqat Eron sulolalarining yirik vakiligina emas, to'laqonli murakkab badiiy obraz darajasiga ko'tarildi. Bunda uning Shirin bilan bo'lgan sarguzashtlari bilan bir qatorda Xusrav-Farhod ziddiyati, ayniqsa, bu ziddiyatning kulminatsiyasi bo'lgan munozara muhim ahamiyat kasb etti. Bu esa keyingi avlod ijodkorlari uchun o'ziga xos namuna, imtihon, sinov maydoniga aylandi.

1.3. XIII-XV asrlar adabiyotida Xusrav va Farhod ziddiyatining badiiy talqinlari.

Nizomiy Ganjaviydan keyin bu mavzuda qalam tebratgan ijodkor fors-tojik tilidagi hind adabiyotining yirik vakili Amir Xusrav Dehlaviydir. U 1298 yilda o'z «Xamsa»sining ikkinchi dostoni «Shirin va Xusrav» [55, 56]ni yaratib, Nizomiy asariga javob aytish an'anasiga asos soldi. Amir Xusrav o'z dostonida Xusrav va Shirin voqealarini sujet nuqtai nazaridan ancha soddalashtiradi va asosiy e'tiborni dostonning falsafiy mazmundorligiga qaratadi.

Bu dostonda Xusrav o'z faoliyatining dastlabki davrlaridanoq, adolatpeshaligi, aqli, shijoati, raiyatparvarligi bilan ijobiy qahramon sifatida gavdalanadi. Ammo ideal hukmdorning barcha xislatlariga ega bo'lgan Xusrav ham haqiqiy ishqning sinovlariga tayyor emas. Sababi, shohlik va oshiqlik martabasi bir kishida mujassam bo'lishi mumkin emas.

Nasroniylikning muqaddas kitobi «Injil»da shunday rivoyat bor. Isoning oldiga bir boy odam kelib undan abadiy saodat (osmon shohligi)ga erishish uchun nima qilishi kerakligini so'raydi. Iso Masih unga zino qilma, odam o'ldirma, o'g'rilik qilma, soxta guvohlik berma, ota-onangni hurmat qil, deb maslahat beradi. Ammo bu odam bularning hammasiga amal qilar edi. Shunda Iso unga barcha mol-mulkini yetim va kambag'allarga bo'lib berishni maslahat beradi va odamlarga qarab: «Boyning Xudo shohligiga kirishidan ko'ra tuyaning igna teshigidan o'tishi osonroqdir»²⁶ - deb aytadi. Mazkur g'oya Qur'oni Karim hamda payg'ambar hadislarida ham o'ziga xos tarzda ifodalangan.

Xusrav Dehlaviy shu fikrni munozara oxirida Farhod tilidan quyidagicha keltiradi:

Tu Xusravro nasihat kun dar in dard,
Ki xohad mond az toju nigin fard.

²⁶Injil. – Stokgolm: Bibliyani tarjima qilish instituti, 1992. Luka-18.191-bet.

Chu o' dar oshiqi bozad jahonro,
Maro xud sahl boshad tarki jonro. [56. 106]

Mazmuni: *Sen bu darddan xoli bo'lishni Xusravga maslahat qil. Chunki u ishq tufayli toji-yu shohlik muhridan mahrum bo'lishi mumkin. U ishq tufayli jahonni barbod etishi mumkin. Mening esa jonimdan bo'lak hych narsam yo'q va undan kechish oson.*

Dehlaviy dostonidagi Farhod obrazi Majnunvash, Shirin ishq uni iztirobga soladi, hayotdan uzoqlashtiradi. G.Aliyevbunishundayta'riflaydi: «Eta lyubov ne pomogaet emu jit i truditsya, ona povergaet ego v otchayanieb privodit k mysli o smerti» [8. 148].

NizomiyvaXusravdostonlaridagiqahramonlarningbundayfarqlixususiyatlaridankeli bchiqibharikkijodkormunozaraniyuzagakeltirishuchunikkixilvaziyatyaratadi.

NizomiyningdostonidaXusravFarhodnisaroyigachaqirtiribshohsifatidaungao' zhukminio'tkazishgaharakatqilsa,
XusravDehlaviydostonidaParvezFarhodishqiovozasinieshitgach,
uningoldigacho'ponqiyofasidaboradi. Budostondamunozara (yokisuhbat)
shohbilanoddiyhunarmando'rtasidaemas,
balkibirxilmavqegaegabo'lganikkiinsonorasidabo'libo'tadi.Shu bilan birga, bu
dostonda Farhod ham mavqe jihatdan, aslida Xusravdan kam emas. Zero u Chin
shahzodasi. Shundan kelib chiqib munozarada ziddiyat yashirin xususiyat kasb
etadi. Munozaraning oxirgi baytida uning ochiq nishonasini ko'rish mumkin:

Biguft: Az ishq jonat dar halok ast.

Bigufto: Oshiqonro z-in chi bok ast? [56. 103]

Mazmuni: *Aytdi: Isq tufayli joning halokatga uchraydi.*

Aytdi: Oshiqning bu bilan nima ishi bor?

Xusravning munozaradan keyingi munosabati ham Dehlaviyda o'zgacha. Nizomiyning Xusravi Farhodning hozirjavobligiga tan berganligini oshkora e'tirof etgan bo'lsa, Amir Xusrav o'z qahramonlari haqida shunday yozadi:

Zi har ch-ash guft doroyi zamona,
Javobe boz dodash oshiqona.

Taajjub kard shah z-on ustuvori,
V-az on so'zish ba chandon puxtakori. [56. 104]

Xusrav Dehlaviyning «Xamsa»si yaratilgandan keyin xamsanavislik an'anaga aylandi. Buning natijasida bu mavzularda, ayniqsa, Xusrav va Shirin mavzusida butun Sharq bo'ylab qator dostonlar yuzaga keldi. Bularning ayrimlari tarjimaga yaqin bo'lsa, ayrimlari ariginal asarlar bo'lib hisoblanadi.

1340 yilda Oltin O'rda xonlaridan Tinibek saroyida shoir va tarjimon Qutb Xorazmiy Nizomiyni «Xusrav va Shirin» dostonini turkiy tilga tarjima qildi. Qutbning bu asari olimlar tomonidan turlicha baholanadi. Chunonchi, Y.E.Bertels uni to'g'ridan-to'g'ri tarjima deb aytsa, A.A.Zayanchkovskiy bu asarni Nizomiy dostonining dastlabki turkcha varianti, G.Aliyev esa qisqartirilgan tarjima, deya baholaydi [8. 63-64].

Qutbning o'zi bu haqda:

Qozontek qaynab ush savdo pishirdum,
Nizomiy bolidin halvo pishirdum, [61. 124]

- deb aytadiki, bu uning Nizomiy dostoniga ijodiy munosabatda bo'lib, o'z mulohazalarini ham kiritishga harakat qilganligidan dalolat beradi. Birgina doston tarkibidagi Xusrav va Farhod munozarasini o'rganish natijasida ham bunga ishonch hosil qilish mumkin.

Adabiyotshunos E.Ochilov ushbu munozara haqida shunday yozadi: «Bu munozarani o'qir ekansiz, Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidagi Xusrav va Farhod munozarasi tasavvuringizda jonlanadi. Badiiy barkamolligi,

ravon va jarangdorligi jihatidan u Navoiy dostonidagi munozaradan qolishmaydi».²⁷

Nizomiy yaratgan munozara 52 misradan iborat bo'lsa, Qutbning asarida misralar soni 42 ta. Qutb aksariyat baytlarni to'g'ri tarjima qilgan holda, ayrim baytlarning mazmunini saqlab ijodiy tarjima qiladi.

Nizomiyda:

Bigufto: Jonfuro'shi dar adab nest,

Biguft: Az ishqbozon in ajab nest. [59. 215]

Mazmuni: *Aytdi: Jonni sotish odobdan emas,*

Aytdi: Ishqbozlar (oshiqlar) uchun bu ajablanarli emas.

Qutbda:

Ayitti: Jonni sotmoqlik xato ul,

Ayitti: Ishq yo'lida ham ravo ul. [61. 485]

Ko'rinib turibdiki, bu baytda Qutb «adab» va «ajab» so'zlarini «xato» va «ravo» so'zlari bilan almashtirgan.

Ayrim baytlarning mazmun mohiyati o'zgartirilgan.

Nizomiyda:

Bigufto: Gar kasesh orad faro chang,

Biguft: Ohan xo'rad v-ar xud buvad sang.

Mazmuni: *Aytdi: Agar birov unga qo'l uzatsa-chi?*

Aytdi: O'zi toshdan bo'lsa-da temir zarbini tuyadi.

Qutbda:

Ayitti: Gar azin er sunsa ilkin,

Ayitti: Tilgamen tosh birla boshin.

Qutb dostonidagi bu baytning ikkinchi misrasi Nizomiy dostonidagi Farhod obraziga yot bo'lgan xususiyatdir.

²⁷Ochilov E. Barhayot siymolar. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. 215-bet.

Qutb ayrim baytlarni umuman tushirib qoldirgan bo'lsa, munozaraga yangi baytlarni ham qo'shadi:

Ayitti: Qilmag'il qo'y quri g'avg'o,

Ayitti: Netek bo'lur chun o't tushti qovg'a.

E.Ochilovning yuqoridagi fikrlarini inkor etmagan holda, ta'kidlash joizki Qutb munozaradagi keskinlik, ziddiyatni oshirishga harakat qilib, uning ravonligi, nafosati va falsafiy mazmundorligiga ma'lum darajada putur yetkazadi va qisman oddiylashtiradi, soddalashtiradi. Uning tilida ham biz Nizomiy, Xusrav va Alisher Navoiy dostonlari tilidagi nafosatni ko'ra olmaymiz.

Qutbning dostonidagi munozara Nizomiy dostoniga nisbatan ayrim o'zgarishlarga uchragan bo'lsa ham, yangi axloqiy va falsafiy fikrlarning g'oyalarning deyarli yo'qligi, faqat ayrim mazmuniy o'zgarishlargina mavjudligi tufayli, nazarimizda, ariginallikdan ko'ra tarjimaga yaqin turadi.

Shu mavzuda yaratilgan o'ziga xos dostonlardan biri Orif Ardabiliyning 1369 yilda yozilgan «Farhodnoma» asaridir. Bu asar haqida mashhur ozor adabiyotshunosi H.Arasli tadqiqotlarida [11, 12] G'.Begdeli va S.Erkinovning ko'p bora murojaat qilayotganimiz monografiyalarida qisman ma'lumot berilgan. H.Arasli Alisher Navoiyning dostonida tilga olingan muallifi noma'lum asar aynan Orif Ardabiliy dostoni degan taxminni ilgari surib, "Farhodnoma" va "Farhod va Shirin" dostonlari o'rtasidagi o'xshashliklarni aniqlashga intilgan. Akad.B.Valixo'jayevning xulosalariga ko'ra "Farhodnoma"da "Farhod obrazining tasviri o'zgacha yo'nalishda amalga oshirilgan. Bu esa Orif Ardabiyning ijodiy konsepsiyasi, ya'ni Farhodni ideal emas, balki oddiy inson sifatida tasvirlashga intilishi bilan bog'liqdir" [18. 151].

Orif Ardabiliy dostoni ikki qismdan iborat ekani haqida shunday yozadi:

Zi no'gi xomaam "Farhodnoma",

Du qismat gasht hamchu no'gi xoma.

Yake dar ishqī Farhodu Guliston,
 Kanori havzu ayshi bog' u bo'ston.

Duvum dar ishqī Farhod astu Shirin
 Safoi qasru ko'hu jo'yi shirin.

Mazmuni: *"Farhodnoma"* dostonim ikki qismdan iborat: birinchisida Farhod va Guliston ishqidan hikoya qilinsa, ikkinchisi Farhod va Shirin ishqī qissasidan iboratdir.

Farhod va Xusrav o'rtasidagi savol-javob Orif Ardabiliyning "Farhodnoma"sida ham mavjud. Madoyinda Shirin turgan qasrda Farhodning paydo bo'lishi, uning sut arig'i voqeasi Xusrav Parvezda kuchli rashk o'tini qo'zg'atadi. U Shopur orqali Farhodni o'z huzuriga chaqirtiradi. Lekin bu vaqtlar Xusrav Maryamni o'z nikohiga olgan bo'lib, uning izmidan tashqari ish tutolmas edi. Shunga ko'ra, uning Farhodga bergan savollari Nizomiy asaridagidek jiddiylikdan mahrum edi. Bu haqda G'. Begdeli shunday yozadi: «Xusrav Farhodga savollar beradi. Farhodning bergan javoblaridan shoh tushunib yetadiki, u Shiringa yurakdan shaydo bo'lgan» [13. 312].

Suhbat davomida Xusrav savollariga ko'pincha Farhod emas, balki Shopur javob beradi. Xusrav Farhodni qanchalik rashk qilmasin, Maryamdan qo'rqib, Shirin masalasida jiddiy bir fikr bildira olmaydi. Suhbat Xusravning Besutunni kesib yo'l ochish to'g'risidagi farmoni, Farhodning esa Shiringa bo'lgan mayli tufayli buyruqni qabul qilishi bilan xotimalanadi [38. 183].

XV asrning ikkinchi yarmida Turkiyada Shayxiy nomli ijodkorning «Xusrav va Shirin» dostoni yaratildi. Bu doston ham Nizomiy Ganjaviyning dostoniga qilingan ijodiy tarjima bo'lib, G'. Begdelining ma'lumot berishicha, unda ba'zi o'ziga xos jihatlar mavjud. Xususan, bu dostonda Xusravning taqvororligiga katta o'rin berilgan. Muallif Xusrav va Farhod munozarasini yaratishda ham ijodiy

yondashgan. Shayxiy dostonida munozara 28 baytdan iborat. Biroq doston matni bilan bevosita tanishish imkoniyati hozircha mavjud emas.

Bu mavzuda qalam tebratgan yana bir ijodkor 1453-1520 yillarda yashab o'tgan xamsanavis Abdullo Hotifiy bo'lib, u o'z «Xamsa»sining ikkinchi dostoni bo'lgan «Xusrav va Shirin»ni 1492 yilda yozib tugatadi [54].

Hotifiyning dostonidagi Xusrav va Farhod munozarasi hajm jihatdan ancha qisqartirilgan va shoir salaflari singari munozaraga katta vazifani yuklamaydi. Ammo Hotifiy munozaraning yangi ariginal shaklini yaratadi. Mazkur munozarada bitta qat'iy qoidaga amal qilinmagan bo'lib, muallif nutqi har xil tarzda, goh misra boshida, goh o'rtasida keladi.

XVI asrning oxirida fors-tojik tilida «Farhod va Shirin» nomli yana bir doston yozilgan. Bu doston Vahshiy Bafqiy qalamiga mansub bo'lib 1588 yilda shoirning dunyodan ko'z yumishi sababli tugallanmay qolgan. Vahshiy asarining yozilgan qismi 2140 misra bo'lib, shundan 1242 misrasi hamd, munojot, na't, me'roj kabi kirish boblaridan iborat. Bu boblarda shoir dostonni yozishdan maqsadi nima ekanligini izohlab, umuman, barcha dostonlar, qolaversa, badiiy ijodning mohiyati, maqsadi haqida fikr yuritadi:

Maro z-in guftgo'yi ishq bunyod,
Ki dorad nisbat az Shirinu Farhod,

G'araz ishq astu sharhi nisbati ishq,
Bayoni ranji ishqu, mehnati ishq.

Chi Farhodu, chi Shirin in bahonest,
G'araz ishq astu digarho fasonest. [13. 202]

Mazmuni: *Mening Farhod va Shirin vositasi bilan bayon etilgan ishqiy dostonni yozishdan maqsadim ishq va uni sharhlash, uning azob-uqubatlari, mashaqqatlarini bayon qilishdir. Farhod va Shirin – bu bir bahona, vositadir. Maqsad ishq, boshqa narsalar esa oddiy afsona, e'tiborsizdir.*

Vahshiyning bu mulohazalari Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» dostonidagi mashhur baytlari mazmuninig aynan tarjimasidir:

Yozmoqda bu ishq i jovidona,
Maqsudum emas edi fasona.

Mazmunig'a bo'ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli. [47. 310]

Bu esa buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning fors-tojik adabiyotiga ko'rsatgan ta'sirini namoyon etuvchi detallardan biridir.

Vahshiy Bafqiy dostoni aynan Shirin va Farhod suhbatiga kelib tugab qolgan. Mazkur munozara asardagi o'rni, kompozitsiyasi, mazmuni va g'oyaviy maqsadiga ko'ra shu mavzudagi dostonlar tarkibida mavjud bo'lgan Xusrav va Farhod munozarasiga juda monand.

Vahshiyning dostonida so'fiyona g'oyalar nafaqat muqaddimaviy boblarda, balki asar mazmunida ham yaqqol sezilib turadi. Xususan, Shirin va Farhod munozarasi (aniqrog'i Farhodning javoblari) oshiqning yor vasliga erishish yo'lidagi bosqichlarni ta'riflovchi kichik asar sifatida namoyon bo'ladi.

Tavsif etilgan manbalardan ma'lum bo'ladiki, Xusrav va Farhod timsollari Sharq adabiyotida uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonlarini bosib o'tdi. XV asrga qadar arab, fors-tojik hamda turkiy tillarda yaratilgan tarixiy-ilmiy va badiiy manbalarda bu shaxslar hamda ularning badiiylashgan timsollariga munosabat turlicha bo'lgan. Bu har bir muallifning dunyoqarashi, g'oyaviy-badiiy maqsadi bilan birga, u yashagan va ijod etgan muhit bilan ham bevosita aloqadordir.

Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki bobida tahlil etilgan masalalar bo'yicha quyidagi xulosalarni bildirish mumkin.

Eron sosoniylarining mashhur vakili Xusrav II Parviz Sharq xalqlari trixi va badiiy ijodida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan shaxslardandir. Xusrav shxsiyati va timsoli tilga olinadigan manbalarni to'rt guruhga ajratish mumkin:

1. Tarixiy va solnoma asarlar.
2. Ishqiy-romantik dostonlar.

3. Turli janrlardagi lirik asarlar.
4. Axloqiy-falsafiy asarlardagi tamsil-hikoyatlar.

Xusravning ilk badiiy timsolini yaratgan shoir Abulqosim Firdavsiy bo'lsa, Farhod timsolining adabiyotga kirib kelishi va Xusrav bilan Shirin o'rtasidagi sujet voqealarida mustahkam o'rin tutishi, shu jumladan Xusrav bilan Farhod munozarasining ilk namunasi Nizomiy Ganjaviy ijodi bilan bog'liqdir.

Alisher Navoiyga qadar Xusrav va Farhod ziddiyati murakkab bosqichlarni bosibo'tdi. Jumladan, Xusrav Dehlaviy dostonida Xusravni ijobiy qahramon sifatida gavdalantirish an'anasi davom etgan bo'lsa, Orif Ardabiliyning "Farhodnoma" dostonida bu timsol salbiy xususiyatlar kasb eta boshladi. Shu bilan birga Farhod timsolining mazkur sujetdagi mavqei ham tobora ortib bordi.

2-BOB: XUSRAV VA FARHOD MUNOZARASINING YARATILISHI VA BADIY TARAQQIYOTI

2.1. Munozara badiiy asar kompozitsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida.

Munozara adabiyotshunoslikda asosan ikki xil istilohiy ma'noda sharhlanadi. Birinchidan, munozara adabiy janr sifatida suhbat, savol-javob shaklida yaratilgan asarni bildirsa, ikkinchidan badiiy asar kompozitsiyasining bir qismi, ya'ni epik asarlarda obrazlar o'rtasidagi savol-javob unsurini ifodalaydi.

“Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati” kitobida u haqda quyidagilarni o'qiydiz: “Munozara – Sharq xalqlari adabiyotida, jumladan o'zbek mumtoz adabiyotida, tortishuv, bahslashuv tarzida yaratilgan asar. Munozara ko'pincha she'riy yo'l bilan, ba'zan nasriy yo'l bilan yozilgan. Munozarada ikki (yoki undan ortiq) obraz orasida tortishuv, bahslashuv boradi. Tortishuvda tomonlardan biri g'olib, ikkinchisi mag'lub bo'ladi yoki har ikki tomon kelishadi. Munozara janrida obrazlar kinoyaviy mohiyatga ega bo'lib, kinoyaviy obrazlar (masalan, o'q, yoy va boshqalar) orqali ijtimoiy hayot masalalari yoritiladi” [7. 122].

Munozara janri haqida Y.E.Bertels, I.S.Braginskiy, A.Qayumov, E.Rustamovlar bir qator nazariy mulohazalarni bayon etganlar. E.E.Bertels ta'rifiga ko'ra “munozara” termini qasidaning o'ziga xos turidir, nasib esa bahs bo'lib, ikki qarama-qarshi tarafning o'zaro munozarasidir. Tortishuv odatdagiday tantanali madh qasidaga bag'ishlangan shaxsni sharaflash bilan tugallanadi [17].

E.Rustamovning “XV asrning birinchi yarmidagi o'zbek poeziyasi” nomli kitobining uchinchi bobini Navoiyga qadar bo'lgan o'zbek shoirlarining munozaralariga bag'ishlaydi. Olim “Munozara, bu o'z ustunligini ko'rsatmoqchi bo'lgan ikki qarama-qarshi tomonning kuchli bahsi, tortishuvi asosida qurilgan badiiy asardir”, - deb ta'riflaydi [30. 138].

A.Qayumov, X.Rasulov, N.Mallayevlar ham bu janr xususida qimmatli mulohazalar bildirganlar. Lekin bu tadqiqotlarda munozara janrining kelib chiqish

manbalari, shakllanish jarayoni, o'ziga xos spesifik xususiyatlari hamda shu janrning taraqqiyot bosqichlari maxsus va mufassal o'rganilmagan.

Ushbu mavzuda bajarilgan maxsus tadqiqot M.Abduvohidovanning "O'zbek adabiyotida munozara" monografiyasi [5]bo'lib, unda mazkur janrning yuzaga kelishi va taraqqiyot yo'li tadqiq etilgan. Xususan, XV asrda yaratilgan munozaralarning umumiy tavsifi ham mazkur tadqiqotda mavjud.

Umaman, munozara janrining paydo bo'lishi qadim zamonlarga borib taqaladi. Eng qadimiy munozaralardan biri Armaqidlar hukmronligi zamonida yaratilgan "Daraxti Assurik" poemasidir. Bu asar she'riy tuzilishi jihatidan sodda bo'lib, "Echki va Xurmo daraxti orasidagi munozara" sujeti asosida qurilgandir. Janr sifatida esa munozara 11-12 asrlarda vujudga keldi. XI asrda yashagan As'adi Tusiy "Munozarayi Shabu Ro'z" ("Tun bilan Kun munozarasi"), "Munozarayi Osmon-u Zamin" ("Osmon bilan Yer munozarasi"), "Munozarayi Gabr-u Muslim" ("Kofir va Musulmon munozarasi"), "Munozarayi Arab-u Ajam" ("Arab va Ajamlilik munozarasi") singari asarlarni yaratib mazkur janrga asos slogan edi. Bu asarlar fors-tojik va o'zbek adabiyotida keying asrlarda yaratilgan munozaralarga namuna manbai bo'lib xizmat qildi. As'adiy Tusiydan keyin buyuk didaktik shoir Sad'iy Sheroziy o'zining she'riy munozaralari bilan shu janrning ijtimoiy-tarbiyaviy rolini yuksak darajaga ko'tardi.

Turkiy adabiyotdagi ilk munozara sifatida ilmiy manbalarda Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari tarkibida saqlanib qolgan "Qish bilan Yoz tortishuvi" qayd etiladi.

"Qish bilan Yoz tortishuvi" munozarasi hayot ehtiyoji tufayli, tabiat mavsumlari bilan insoniy kurash jarayonida, hali go'daklik davrini o'z boshidan kechirayotgan insonlarni tabiat mavsumlarining birini do'st, birini dushman bilishi natijasida yaratilgan.

Biroq, shuni ham qayd etish kerakki, fikrni savol-javob tarzida ifodalash an'anasi juda qadim tarixga ega. Bu tarixiy taraqqiyotni kuzatish bir qator masalalarga oydinlik kiritishga yordam beradi.

Eng qadimgi diniy kitoblarda, xususan zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto» yoki «Bxagavad gita» va «Mahobhorat» kabi hindlarning muqaddas kitoblarida ham munozaraning ayrim namunalarini kuzatish mumkin. Agar «Avesto»ning bir bo'limi Zardushtning Axura Mazda bilan savol-javobi tarzida yozilgan bo'lsa, «Bxagavad gita» boshdan oxir Arjuna bilan Krishnaning ilohiy tushunchalar, olam, insoniyat, insonning tug'ilishidan maqsad va bu maqsadga yetishish yo'llari, o'limdan keying hayot haqidagi savol-javobidan iborat:

- Пожалуйста, расскажи мне подробно о Твоих божественных качествах, благодаря которым Ты понижаешь все эти миры.

- Я ест Парамата... перебивающая в сердцах всех живых существ. Я их начало, середина и конец.²⁸

Mazmuni: *-Iltimos, barcha olamlarga kirib borishingga yordam beradigan ilohiy fazilatlarining haqida menga gapirib ber.*

- Men Paramata... barcha tirik mavjudotlarning yuragida makon tutgan. Men ularning availi o'rtasi va oxiridurman.

Nasroniylikning muqaddas kitobi bo'lmish «Injil»da ham asosiy ilohiy hukmlar va tushunchalar Iso Masihning izdoshlari va havoriylari bilan qilgan suhbatida berilgan:

- Butun ilohiy amrlarning eng muhimi qaysi biri? – deb so'radi.

Iso unga javob berib dedi:

- Butun amrlarning eng muhimi shu: «Tingla, ey Isroil! Rabbimiz bo'lgan Xudovand – yagona Xudovanddir. Rabbing bo'lgan Xudovandni butun joning bilan, butun onging bilan va butun quvvating bilan sevgin». Mana bu eng muhim amr. Ikkinchisi esa undan kam emas, chunonchi: «O'zgani o'zing kabi sevgin». Bulardan buyuk amr yo'q».²⁹

Bu savol-javob shunisi bilan ham qadrligi, undagi g'oya nafaqat Tavrot va Injilning, balki barcha ilohiy ta'limotlar, xususan tasavvuf va uning ta'sirida shakllangan Sharq adabiyotining asosini tashkil etadi.

²⁸Bxagavad-Gita. – Moskva, 1990. 184-sah.

²⁹Injil. – Stokgolm: Bibliyanitarjimaqilishinstitut, 1992. 116-bet.

Osmoniy kitoblar ichida so'nggisi va eng mukammali bo'lmish Qur'oni Karimda ham munozaraning ayrim namunalarini kuzatishimiz mumkin. Qur'onning ko'pgina oyatlarida «Sizdan so'rashadi», «Sizga aytishadi», «Ayting», «...deb javob bering» kabi so'z va birikmalar ishtirok etishi ham yuqoridagi gifikrni tasdiqlaydi.

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi misollarda «munozara» tushunchasi tor ma'noda, ya'ni faqat suhbat, savol-javob ma'nosida ishlatilishi mumkin. Zero badiiy adabiyotdagi munozaralarga xos bo'lgan «tortishuv» unsuri ularda mavjud emas. Biroq savol-javob vositasi diniy kitoblarda ilohiy amr va tushunchalarni sharhlash, yetkazishning eng qulay usuli bo'lganligini e'tirof etish lozim. Mazkur manbalarning bevosita ta'siri natijasida shakllangan, ularning badiiy sharhi, tafsiri, davomi sifatida yuzaga kelgan Sharq islomiy adabiyoti, tasavvuf adabiyotida ham munozara yuqoridagi maqsadni majoz yo'li bilan ado etishning asosiy vositalaridan biri bo'lib xizmat qildi. Boshqacha qilib aytganda, diniy tafakkurdagi ilohiy qudrat tushunchasini ifodalash usuli badiiy tafakkurdagi ilohiy ishqni tavsiflash vositalaridan biriga aylandi.

Albatta, bu bilan mumtoz adabiyotda yaratilgan barcha munozaralar shunday xarakterga ega degan fikrdan yiroqmiz. Biroq, pandnoma mazmunidagi nasriy asarlar, ishqiy mavzuda munozara shaklida yozilgan turli janrlardagi she'rlar (g'azal, masnaviy, murabba vahokazo), Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni va boshqa hikmatgo'y shoirlarning munozara-hikmatlari; masnaviy-dostonlar tarkibidagi shoir va ma'shuqa, oshiq va ma'shuqa, shoir bilan xotifdan kelgan ovoz munozaralarini ko'zdan kechirish yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Xususan, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav va Alisher Navoiy kabi diniy mafkura va tasavvuf ta'limotidan chetda bo'lmagan mutafakkir ijodkorlarning ishqiy dostonlari, ularning tarkibidagi munozaralarga murojaat etganda, yuqoridagi fikrlarni inobatga olish foydadan xoli bo'lmaydi.

Xusrav, Shirin va Farhod obrazlari tarixi, ularning adabiyotga kirib kelishi va taraqqiyotini u yoki bu darajada yoritadigan ko'plab ilmiy asarlarda Xusrav va Farhod munozarasi asarning eng muhim, boshqacha qilib aytganda, kulminasiyasi

ekanligi e'tirof etiladi. Biroq biror bir ilmiy manbada mazkur munozara atroflicha tahlil etilmagan, qiyosiy tarzda o'rganilmagan. Buning natijasida munozara o'zining asl mohiyatini yo'qotib, shoh va hunarmand, yoxud ikki tabaqa vakilining ziddiyati va uning maqsadi: «...hokim tabaqaning jirkanchligi va ikkiyuzlamachiligi («...nichtojnost i lisimeriye»)ni fosh qilish» [8. 96] bo'lib qoldi. Vaholonki, quyidagi kabi misralarni oddiy savol-javob tarzida aytib o'tish asarda yashiringan xazinaning ko'p qismidan bebahra qolish bilan tengdir:

Biguft: Az ishq o' to kay xo'ri g'am?

Bigufto: To ziyam, dar murdagi ham.

Mazmuni: *Aytdi: Qachongacha uning ishqidan g'am chekib yurasan?*

Aytdi: Toki tirik bo'lsam, hatto o'lgandan keyin ham.

Yoxud:

Dedi: Qay chog'din o'lding ishq aro mast?

Dedi: Ruh ermas erdi tang'a payvast.

Bizga ma'lum bo'lgan ushbu mavzudagi dostonlarning barchasida bu munozara deyarli bir xil joyda va bir xil shaklda kelgan yagona epizod ekanligini inobatga olsak, har bir ijodkor unga shunchaki voqealar tizimining bir elementi sifatida emas, maxsus yondashganligini aniqlash qiyin emas. Shunday ekan, bu munozaralarni maxsus, qiyosiy o'rganish har bir muallifning dunyoqarashidagi mushtaraklik va o'zida xoslikni, ularning hayot, inson va ilohiyot, ishq tushunchalarini qanday tushunishini aniqlash, ikkinchi tomondan esa, har bir ijodkorning badiiy mahoratiga baho berish imkoniyatini yaratadi.

2.2. Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostonida Xusrav va Farhod munozarasi.

Tasavvuf ta’limotiga ko’ra tangri bu olamni yaratib, O’zi ham unga singib ketgan. Uning zotida mavjud bo’lgan ishq bu olamdagi har bir zarrada namoyon bo’ladi:

Bu rangin safha, balkim dard bog’i,
Ayon har lolasida ishq dog’i.

Inson Allohning yerdagi xalifasi, zuhuri bo’lib, uning ko’ngli ilohiyot sirlari, ishq javohirining xazinasidir. Bir vaqtlar asliyatidan ajralgan ruhlar hamisha bir-biriga talpinadi, mutlaqlikka intiladiki, aynan mana shu intilish ishqdir. Ammo Alloh Odamni yaratganda unga tana bilan birga nafs, shahvoniy nafs ham berdi, chunki busiz insoniyat vujudga kelmas edi. Shu tariqa ishqning ikki ko’rinishi, nafsoniy va ruhoniy ishq odamiylarga meros bo’lib qoldi.

Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida «avom ishq», «xavos ishq» va «siddiqlar ishq» kabi ishqning marotib (martabalar)ini ajratadi. Shundan birinchi toifa «avom ishq» yuqoridagi nafsoniy ishq bo’lsa, ikkinchi toifa – «xavos ishq» ruhoniy ishqdir. «Tangri yo’lida zahmat chekuvchi dili va tili Haq yodidan bo’shamaydigan chin so’fiylarning ko’ngil ko’zgusi dunyoviy hirs-u havas g’uboridan tozalangan sababli, «pok ko’zni pok nazar bila pok yuzga» solib, «pok mazhar», ya’ni ilohiy jamol aks etgan alohida odamlarni sevish «vositasi bila» mahbubi haqiqiy jamolidan bahra olmoqqa musharrafdir» [23].

Majoziy ishq deya ta’riflanuvchi bu tuyg’u tasavvufiy adabiyotning, xususan, Xusrav va Shirin mavzusidagi dostonlarning asosini tashkil etadi. Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy va Alisher Navoiy dostonlarida aynan majoziy ishqning «avom ishq»dan farqli jihatlari real hayotiy voqyealar asosida tasvirlab berilgan.

“Xusrav bilan Farhod o’rtasidagi munozara shu mavzudagi barcha dostonlarning “Farhod va Shirin”ga yaqinligini ko’rsatuvchi muhim belgilardan

biridir, - deb yozadi adabiyotshunos S.Erkinov.- Biroq bu faqat tashqi o'xshashlik bo'lib, ularning har birida muayyan g'oyaviy niyat o'z ifodasini topgan" [38. 182]. Uning fikricha uchala muallif asarlaridagi lavhalar o'rtasidagi yaqinlik to'g'risida so'zlash bilan bilan bir qatorda o'rtadagi farqlar, har bir muallifning g'oyaviy niyati bilan bog'liq tomonlar, faktlarni umumlashtirishdagi mahorat haqida ham alohida fikr yuritishga to'g'ri keladi. Darhaqiqat, munozaralar orasidagi farq, oldingi bobda ham ko'rib o'tganimizdek, uni boshlashdan oldingi vaziyat, obrazlarning holatidayoq namoyon bo'ladi.

Nizomiyni dostonida Xusrav Farhodning Shiringa bo'lgan munosabatidan xabardor bo'lgach, rashk o'ti uning vujudini qamrab oladi. U Farhodni saroyiga chaqirtiradi va shoh sifatida unga o'z hukmini o'tkazishga harakat qiladi. Biroq Farhod saroyga kirar ekan:

Na bo Xusrav nigah kard u na dar taxt,
Chu sheron panja kardan dar zamin saxt.

G'ami Shirin chunon az dil rabudash,
Ki parvoyo xudu Xusrav nabudash.

Mazmuni: U na Xusravga va na taxtga qaradi, sher singari panjasini (oyog'ini) yerga maxkam tirab turardi. Shirin g'ami uning ko'nglini shunchalik olgan ediki, o'ziga ham Xusravga ham parvo qilmas edi.

Bo'lajak savol-javobning qay darajada keskinlik kasb etishini oldindan ham sezish mumkin. Y.E.Bertels o'zining "Navoiy" monografiyasida Nizomiyni "Xusrav va Shirin" dostonidagi munozara haqida to'xtalib, uni jang maydonidagi qilichlar zarbiga qiyoslaydi: "Farhodning Xusrav bilan suhbat - dostonning eng shoyondiqqat o'rinlaridan biri. Xusravning savollari va Farhodning javoblari qilichbozlarning shamshirlari kabi kesishadi" [14. 234].

Dostonlardagi Xusrav va Farhod munozaralarini muallifning ijodiy maqsadi va baytlarning mazmun-mohiyatiga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin.

Munozaralarning ibtidosida muallif Farhod bilan tanishtiradi, uning ruhiyat olami gavdalanadi.

Ikkinchi qismda Farhodning Shiringa bo'lgan ishq, bu orqali esa ishq va oshiqlik tushunchasining o'zi tavsiflanadi.

Uchinchi qismda Xusrav Farhodni bu ishqdan voz kechishga undaydi.

Bunday qismlar har bir ijodkor asarida turli mazmun va uslubiy jilolarda namoyon bo'ladi. Albatta, bu qismlar o'rtasida muayyan chegara qo'yishning iloji yo'q. Zero ular gohida bir-birini almashib keladi. Aslida bu ham bejiz emas. Muallif munozaradagi ziddiyatni bir xil tempda emas, pauzalar bilan kuchaytirib boradi. Buni Nizomiy Ganjaviy dostonidagi munozara misolida ko'rib o'tishimiz mumkin.

Nizomiyning «Xusrav va Shirin» dostonidagi Xusrav va Farhod munozarasi 26 baytdan iborat bo'lib, har bir baytning ilk misrasi Xusrav, ikkinchisi Farhod nutqidir. Misralar «biguft» va «bigufto» so'zi bilan ifodalangan muallif nutqi bilan boshlanadi. Faqat ilk misra bundan mustasno:

Naxustin bor guftash, k-az gujoy?

Biguft: Az dori mulki oshnoy.

Mazmuni: *Avvalambor, qayerdansen, deb so'radi.*

Aytdi: Oshnolar mamlakati uyidan.

Biguft: On jo ba san'at dar chi ko'shand?

Biguft: Anduh xarandu jon furo'shand.

Mazmuni: *Aytdi: U yerda qanday hunar bilan mashg'ul bo'lishadi?*

Aytdi: Jonni sotib, o'rniga anduh olishadi.

Bigufto: Jonfuro'shi dar adab nest.

Biguft: Az ishqbozon in ajab nest.

Mazmuni: *Aytdi: Jonni sotish odobdan emas-ku,*

Aytdi: Oshiqlardan bu ish sodir bo'lsa, ajab emas.

Mazkur uch baytda Nizomiy Farhod bilan, uning ichki olami bilan tanishtiradi. Uning fikricha ishq yo'liga kirgan kishi jismu jonidan voz kechib, faqat yor ishq, uning dard-u alamlari bilan yashaydi.

Agar obrazlarning nutqiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Xusravning savollari rasmiy zodagonlar (aristokratiya) odobi, madaniyati doirasida. Farhodning nutqida esa, aksincha, chapanilik, hatto beadablikka yaqin bir uslubni sezish qiyin emas. Buning sabablari munozara davomida yanada oydinlashadi.

Keyingi baytlardan boshlab so'z bevosita Farhodning Shiringa bo'lgan ishq haqida boradi:

Biguft: Az dil shudi oshiq bad in son?

Biguft: Az dil tu mego'yi, man az jon.

Mazmuni: *Aytdi: Bu tarzda ko'ngildan oshiq bo'ldingmi?*

Aytdi: Sen ko'ngildan deysan, men esa jondan deb aytaman.

Bigufto: Ishqi Shirin bar tu chun ast?

Biguft: Az joni shirinam fuzun ast.

Mazmuni: *Aytdi: Shirin ishq sen uchun ne qadar (qadrli)?*

Aytdi: Shirin jonimdan ko'ra afzalroqdir.

Bigufto: Har shabash bini chu mahtob?

Biguft: Ore chu xob oyat, kujo xob.

Mazmuni: *Aytdi: Har kecha oyni ko'rgandek uni (tushingda) ko'rasanmi?*

Aytdi: Albatta, agar uxlay olsam, lekin uyqu qayda?

Bigufto: Dil zi mehrash kay kuni pok?

Biguft: On gah, ki bosham xufta dar xok.

Mazmuni: *Aytdi: Ko'nglingni uning mehridan qachon tozalaysan?*

Aytdi: Jismim tuproqqa qorishgandan keyin.

Bigufto: Gar xiromi dar saroyash?

Biguft: Andozam in sar zeri poyash.

Mazmuni: *Aytdi: Agar uning saroyiga qadam qo'ysang-chi?*

Aytdi: Bu boshni uning oyog'i ostiga tashlayman.

Bigufto: Gar kunad chashmi turo resh?

Biguft: In chashmi digar doramash pesh.

Mazmuni: *Aytdi: Agar ko'zingni o'yib olsa-chi?*

Aytdi: Bu ikkinchi ko'zimni ham tutib beraman.

Bigufto: Gar nayobi so'yi o' roh?

Biguft: Az dur shoyad did dar moh.

Mazmuni: *Aytdi: Agar uning dargohiga yo'l topa olmasangchi?*

Aytdi: Shoyad uzoqdan visolini oyda ko'rsam.

Bigufto: Duri az mah nest darx(v)ar?

Biguft: Oshufta az mah dur behtar.

Mazmuni: *Aytdi: Oydan (yordan)uzoqda bo'lish foydasiz-ku.*

Aytdi: Devonaning oydan uzoqroqda bo'lgani ma'qul (chunki to'lin oyni ko'rganda dardi qo'zg'aydi yoki kuchayadi).

Bigufto: Gar bixohad har chi dori?

Biguft: In az xudo xoham ba zori.

Mazmuni: *Aytdi: U istagan narsalarning hammasi senda bormi?*

Aytdi: Shunday bo'lishini xudodan zorlanib so'rayman.

Munozaraning shungacha bo'lgan qismida savol-javob uslubi yetakchilik qiladi. Xusrav nutqi ba'zan ritorik, ko'pincha esa sof so'roq mazmunida bo'lib, Farhodning javoblarida so'z o'yini qilish, kinoya ohangi seziladi.

Nizomiy talqinidagi Farhod (oshiq) butun moddiyligidan voz kechgan, ammo uning ishqijon bilan bog'lig'. U jonni ko'nguldan ustun qo'yadi. Uning

uchun ishq bu hayot, tiriklik, ishq uni jon bilangina tark etadi. Buni majoziy ishqning eng mukammal ko'rinishi deya ta'riflash mumkin, biroq hali haqiqiy, azaliy ishq darajasiga yetmagan.

Keyingi baytlardan boshlab Xusrav Farhodni bu ishqdan voz kechishga undaydi va asta-sekinlik bilan uning nutqida nasihat, so'ngra tahdid ohangi sezila boshlaydi:

Bigufto: Do'stish az tab' bugzor.

Biguft: Az do'ston n-oyad chunin kor.

Mazmuni: *Aytdi: Bu do'stlikni (muhabbatni) xotiringdan chiqargin.*

Aytdi: Bunday ish do'stlarga munosib emas.

Biguft: Osuda shav, k-in kor xom ast,

Biguft: Osudagi bar man harom ast.

Mazmuni: *Aytdi: Tinchlangin, bu ishing xomdir.*

Aytdi: Tinchlanish men uchun haromdir.

Bigufto: Rav saburi kun dar in dard,

Biguft: Az jon saburi chun tavon kard?

Mazmuni: *Aytdi: Bor, bu dardga sabr qilgin.*

Aytdi: Jondan kishi qanday sabr qilsin?

Biguft: Az sabr kardan kas xijil nest,

Biguft: In dil tavonad kard, dil nest.

Mazmuni: *Aytdi: Sabr qilishdan hyech kim zarar ko'rmagan.*

Aytdi: Bu ko'ngil (sabr) qila olsa qilardi, biroq uning o'zi yo'q.

Biguft: Az ishq korat saxt zor ast,

Biguft: Az oshiqi xushtar chi kor ast?

Mazmuni: *Aytdi: Bu ishq tufayli ahvoling yomon bo'ladi.*

Aytdi: Oshiqlikdan yaxshiroq qanday ish bor?

Bigufto: Jon madeh, bas dil ki bo o'st,

Bigufto: Dushmanand in har du be do'st.

Mazmuni: *Aytdi: Jon berish shart emas, ishq ko'ngulda bo'lgani yetarli-ku?*

Aytdi: Agar do'st bo'lmasa, bu ikkalasi ham (jon va ko'ngil) men uchun dushmandir.

Bigufto: Dar g'amash metarsi az kas?

Bigufto: Az mehnati hij roni o' bas.

Mazmuni: *Aytdi: Uning g'amida nimadan ko'proq qo'rqasan?*

Aytdi: Yolg'iz uning hajri mashaqqatlaridan (qo'rqaman).

Bigufto: Az dil judo kun ishq Shirin.

Bigufto: Chun ziyam be joni shirin?

Mazmuni: *Aytdi: Shirin ishqini ko'nglingdan chiqargin.*

Aytdi: Shirin jonsiz qanday yashayin.

Munozara so'ngiga borib Xusrav Shirin borasidagi da'vosini ochiq-oydin bayon etadi. Farhod esa o'z ohangida javob qaytaradi:

Bigufto: O' oni man shud, z-o'makun yod,

Bigufto: In kay kunad bechora Farhod?

Mazmuni: *Aytdi: U meniki bo'ldi, uni yodingdan chiqar.*

Aytdi: Bechora Farhod buni qanday qilsin?

Bigufto: Ar man kunam bar vay nigohe?

Bigufto: Ofoqro so'zam ba ohe.

Mazmuni: *Aytdi: Agar men unga nigoh solsam-chi?*

Aytdi: Ohim bilan ufqlarni kuydurgumdir.

Farhod Shirinning ko'ngli Xusravda ekanligini, uning muhabbatiga sazovor bo'lolmasligini yaxshi biladi. Ammo uning butun vujudi, ko'ngli ishqning ixtiyorida. Shirin ishqiga unga azob bilan birga cheksiz zavq ham bag'ishlaydi.

Nizomiy Ganjaviy yaratgan Xusrav va Farhod munozarasi asar ichida asar xususiyatiga ega bo'lgan noyob topilmadir. Bu munozarada faqat hukmdor va oddiy hunarmand orasidagi ziddiyat emas, ikki xil dunyoqarashdagi oshiqning, ikki turdagi ishqning ziddiyati, qolaversa, ijodkorning ishq va u bilan bog'liq falsafiy tushunchalarni idrok etish darajasi aks etgan. Keyingi munozaralarni tahlil qilish orqali Nizomiy dunyoqarashining boshqa mutafakkirlarning ijodida qay darajada aks etganligini aniqlash mumkin bo'ladi.

2.3. Xusrav va Farhod munozaralarida an'ana va ijodiylik.

Oldingi bobda ko'rib o'tganimizdek, Nizomiy Ganjaviy dostonlariga ilk marotaba nazira bog'lagan hind-fors adabiyotining yirik namoyandasi Amir Xusrav Dehlaviy o'zining «Shirin va Xusrav» dostonida ustoz-salafi an'alarini munosib davom ettirish va boyitishga harakat qildi. Butun dostonida bo'lgani kabi uning kompozisiya nuqtai nazaridan eng kam o'zgarishga uchragan qismi – Xusrav va Farhod munozarasida ham yuksak istedod sohibining o'ziga xos musobaqaga kirishganligini sezish qiyin emas. Oldingi bobda guvoh bo'lganimizdek Amir Xusrav o'zining ideallashtirishga moyil bo'lgan qahramoni Xusravni oddiy inson qiyofasida Farhodning oldiga olib boradi. Y.E.Bertelsning fikriga ko'ra: "... bu suhbat unda (Xusrav Dehlaviyning dostonida – B.I.) juda sysaytirilgan, chunki Nizomiyda shoh oddiy hunarmand bilan so'zlashgan bo'lsa, bu yerda ular go'yo teng kishilar sifatida talqin qilingan" [14. 236].

Xusrav Dehlaviyning dostonida munozara 25 baytdan iborat bo'lib, tashqi belgilariga ko'ra Nizomiy munozarasidan deyarli farq qilmaydi. Faqat bunda

misralar «biguftash» va «bigufto» so'zlari bilan boshlanadi va bunga ilk misradan amal qilingan.

Shuni ham qayd qilish kerakki, Dehlaviyning munozaraga yondashishi, unga kirib borishi, undan foydalanish usuli Nizomiynikidan farqlanadi. Bu avvalambor Xusrav va Farhod obrazlarining xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Amir Xusrav Dehlaviyning «Shirin va Xusrav» dostonidagi Xusrav va Farhod munozarasi quyidagicha boshlanadi:

Biguftash: Kistiyu dar chi sozi?

Bigufto: Oshiqam dar jongudozi.

Mazmuni: *Aytdi: Kimsan va nima ish qilasan?*

Aytdi: Jonini qiynoqqa soladigan oshiqman.

Xusrav bu munozarada “Qayerdan san?” degan savolni bermaydi. U suhbatni tasodifan uchrashib qolgan kishi sifatida boshlaydi.

Biguftash: Oshiqon z-in rah chi po'yand?

Bigufto: Dil dihandu dard jo'yand.

Mazmuni: *Aytdi: Bu yo'lda oshiqlar nimaga ega bo'ladilar?*

Aytdi: Ko'ngilni beradilar, evaziga dard oladilar.

Biguftash: Mazhabi xubon kadam ast?

Bigufto, k: - Ash firebu ishva nom ast.

Mazmuni: *Aytdi: Go'zallar (ma'shuqlar)ning e'tiqodi qanday?*

Aytdi: Uning fireb va ishva degan nomi bor.

Biguftash: Peshai digar chi dorand?

Bigufto: G'am dihandu jon sitonand.

Mazmuni: *Aytdi: Yana qanday hunarlari, odatlari bor?*

Aytdi: G'am beradilar va jonni oladilar.

Ko'rinib turibdiki, Xusrav Dehlaviy dostonida munozaraning dastlabki qismi kengaytirilgan. Oldingi munozaradan farqli o'laroq, bu yerda faqat oshiqning emas, ma'shuqaning sifatlari ham tavsiflanadi. Bu Amir Xusrav Dehlaviy munozarasining yetakchi xususiyatlaridandir. Bu qismda Xusrav Dehlaviy Nizomiyning ishq haqidagi fikrlarini qisman takrorlaydi. Biroq unda dehlaviyona jozibador bayon uslubi yaqqol sezilib turadi.

Xusrav Dehlaviy dostonida munozaraning uchinchi qismi, ya'ni Farhodni bu ishqdan qaytarishga bo'lgan intilish chindan ham ancha susaytirilgan. Bu yerda biz tahdid ohangini deyarli sezmaymiz:

Biguft: O'ro mabin to zinda moni.

Bigufto: Marg beh z-on zindagoni.

Mazmuni: *Aytdi: Agar yashamoqchi bo'lsang, unga qarama (voz kech).*

Aytdi: Bunday hayotdan ko'ra o'lim afzalroq.

Biguft: Ar z-o' ba tan boshad ziyone?

Biguft: Arzon buvad javrash ba jone.

Mazmuni: *Aytdi: Agar u tufayli jismingga ziyon yetsa-chi?*

Aytdi: Jonga ziyon yetsa ham arzimadir.

Biguftash: Dur kun z-on do'st yori,

Biguft: In nest sharti do'stdori.

Mazmuni: *Aytdi: Unga bo'lgan muhabbatingni o'zingdan uzoqlashtir?*

Aytdi: Do'stlik (muhabbat)ning sharti bunday bo'lmaydi.

Oshiq uchun yorning zohiriy xislatlari ahamiyatsiz, uning uchun qalbdagi ishq, qalbdagi yor muhim. Shuning uchun yorning jafosi, yetkazgan sitami uning ishqini kamaytirmaydi, aksincha, kuchaytiradi. U yor uchun jonini berishga oshiqadi, bu esa katta mukofot.

Keyingi baytlarda Xusrav yorning yetkazadigan jafolarini aytib Farhodning ishqini sinamoqchi bo'ladi. Xusrav Dehlaviyning munozarasida, ayniqsa, shu qism mukammal ishlangan. Bu baytlar orqali shoir ishq bilan quvvatlangan oshiq nimalarga qodir bo'lishini tavsiflaydi:

Biguft: Az ishq o' to kay xo'ri g'am?

Bigufto: To ziyam, dar murdagi ham.

Mazmuni: *Aytdi: Uning ishqida to kaygacha g'am chekasan?*

Aytdi: To tirikman, hatto o'lgandan keyin ham.

Mazkur misra Dehlaviyning munozarasidagi ishqning o'zgacha talqinidir. Nizomiy Ganjaviyning munozarasida Farhod ishq i jon bilan, tiriklik bilan bog'langan, u bilan birgalikda mavjud edi. Bu yerda esa ishq jondan ham ustun, u ruh bilan tenglashadi. Bu esa uning abadiy ligini ta'kidlaydi.

Biguftash: Gar sarat burrat ba shamsher?

Bigufto: Ham ba so'yash binam az zer.

Biguft: Oxir na xunrezi vubol ast.

Biguft: Ar do'st merezad halol ast.

Biguftash: Ar xuni rezad jafoyash?

Bigufto: Ham bimiram dar havoyash.

Biguft: Ar bigzarad so'yi tu nogoh?

Biguft: Az dida ro'bam peshi o' roh.

Biguftash: Gar nihad bar chashmi tu poy?

Biguft: Az chashm dar dil sozamash joy.

Biguft: Ar biniyash dar xob qomat?

Bigufto: Barnaxezam to qiyomat.

Biguft: Ar go'yad az noxun bikan sang?

Bigufto: Kovam az mujgon ba farsang.

Biguftash: Xush bizi chand az g'ami do'st?

Bigufto: Chun ziyam, chu joni man o'st.

Biguft: Az ishq jonat dar halok ast.

Bigufto: Oshiqonro z-in chi bok ast?

Amir Xusrav Dehlaviy munozarasining tahlilidan ma'lum bo'ladiki, shoir ko'p jihatdan Nizomiy an'analari, qarashlariga tayanadi. Biroq uning munozarasida «Ishq» tushunchasining tasavvufiy mohiyati kuchayganligi, uning yangi talqinlari namoyon bo'lganligi kuzatiladi. Shu bilan birga oshiqning holatlarini tasvirlashda yangicha jozibadorlik va jo'shqinlik, «mo'jiz bayonliq sohiri Hind» (Navoiy)ning o'ziga xos mo'jizakor bayon uslubi namoyon bo'ladi.

Vahshiy Bafqiyning yuqorida tilga olingan «Farhod va Shirin» dostonidagi Shirin va Farhod munozarasi ham asardagi o'rni, kompozitsiyasi, mazmuni va g'oyaviy maqsadiga ko'ra shu mavzudagi asarlar tarkibida mavjud bo'lgan Xusrav va Farhod munozarasiga juda monand. Biroq bunda munozaraning uchinchi qismi, tabiiyki, tushib qoladi:

Biguft: Az gulruxon binad vafo kas?

Biguft: In orzu ushshoqro bas.

Mazmuni: *Gul yuzlilardan birov vafo ko'radimi?*

Oshiqlar uchun bu orzuning o'zi kifoya.

Biguft: In ishqbozon xud kiyonand?

Bigufto: Saxt qavmi mehribonand.

Mazmuni: *Bu oshiqlar o'zi kimlar (qanday kishilar)?*
Qattiq mehr qo'yganlar qavmi.

Bigufto: Kist in mehriboni?

Bigufto: Hast to gardid foni.

Mazmuni: *Bu mehribonlar kimlar?*
Fanoga intiluvchilardir.

Bigufto: Chun fano gardid ushshoq?

Bigufto: Ham chunon boshad mushtoq.

Mazmuni: *Oshiqlar fano darajasiga qanday erishadi?*
Kuchli mushtoqlik natijasida.

Bigufto: Naxli mushtoqe dihad bor?

Bigufto: Ore, vale hirmon bisyor.

Mazmuni: *Mushtoqlik daraxti meva beradimi?*
Ha, biroq kuydirishi bisyor.

Bigufto: Dardi hirmonro chi darmon?

Bigufto: Ey voy-voy az dardi hirmon.

Mazmuni: *Kuydirish dardining darmoni nima?*
Kuyish dardidan voy (ya'ni davosi yo'q).

Bu munozarada baytlar o'zaro zanjirsimon bog'langan bo'lib, musalsal g'azallarni eslatadi. Unda g'oya yoxud maqsad tadrijiy ravishda rivojlantirib boriladi. Oshiqlik martabasi, uning sifatlari, fanoga erishish yo'li va xususiyatlari muxtasar tarzda Farhod tilidan bayon etiladi.

Bunday xususiyat Nizomiy va Amir Xusrav dostonlaridagi munozaralarda qisman, ba'zi baytlarda sezilar edi. Keyingi bobda tahlil qilishimiz rejalashtirilgan

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida esa tadrij yoki musalsal usuli yaqqol namoyon bo’ladi. Demak bu o’rinda ham (oldingi bobda ham bu haqda fikr bildirgan edik) Vahshiy Alisher Navoiydan ilhomlangan, deb aytish uchun asos bor.

Munozaraning Nizomiy Ganjaviy yaratgan an’anaviy shakli XVI asrga kelib jiddiy o’zgarishlarga uchradi. Uning kompozisiya nuqtai nazaridan yangi-yangi shakllari kashf etildi. Abdurahmon Jomiyning jiyani, xamsanavis Abdullo Hotifiyning «Xusrav va Shirin» dostonidagi «Xusrav va Farhod» munozarasi aynan shunday o’ziga xos kompozisiyaga ega ekanligi bilan ajralib turadi:

Biguft: «Avval bigo’ bo man maqomat».

Nazirash guft: «Dar ko’yi malomat».

Mazmuni: *Dedi: Avval maqom (tarjimai hol)ingni aytgin. Suhbatdoshi (oldida turgan kishi) malomat yurtidan, deb javob berdi.*

Pas on gah guft: «Shirin kist doni?»

«Mabodo, - guft, - be o’ zindagoni».

Mazmuni: *Shundan keyin dedi: Shirinni kim deb bilasan? Dedi: Usiz yashashim imkonsizdir.*

«Marav, - gufto, - ba peshi on pariroy».

«Nadoram, - guft, - joye g’ayri on ko’y».

Mazmuni: *«Ul pari yuzlining oldiga borma», - dedi. «Undan boshqa boradigan joyim yo’q» - deb javob berdi.*

«Kunam, - gufto, - ba teg’at, pora-pora»,

Bigufto: «Gar qazo boshad chi chora?»

Mazmuni: *Dedi: «Vujudingni tig’ bilan pora-pora qilishim mumkin. Dedi: «Bu mening taqdirimda bo’lsa, undan qanday qochish mumkin?»*

Ko'rinib turganidek, Hotifiy munozaraning yangi ariginal shaklini yaratadi. Mazkur munozarada bitta qat'iy qoidaga amal qilinmagan bo'lib, muallif nutqi har xil tarzda, goh misra boshida, goh o'rtasida keladi. Bu esa munozaraga yangicha ritm, jarangdorlik baxsh etgan.

Vahshiy Bafqiyning tugallanmay qolgan dostonini davom ettirgan shoir Visol Shirin va Farhod munozarasining yanada o'zgacha shaklini yaratdi:

Bigufto: chist jon? Gufto: nisorat.

Bigufto: chist tan? Gufto: g'uborat.

Mazmuni: *Dedi: «Jon nima?» Dedi: «Senga fido bo'ladigan narsa».*

Dedi: «Tan nima?» «Sening g'uboring».

Badil, - gufto chi dori? Guft: yodat.

Murodat, - guft, chist? Gufto: murodat. [13. 212]

Mazmuni: *«Ko'nglingda nima bor?» Dedi: «Xayoling».*

«Muroding nima?» Dedi: «Sening muroding».

Demak, bu davrga kelib munozaraning faqat mazmuni emas, shakily rang-barangligi ham yuzaga keldi. Bu esa nafaqat bu munozara, yoxud shu mavzudagi dostonlarga xos bo'lgan holat, balki xamsanavislik an'anasining XVI asrdagi taraqqiyotiga xos bo'lgan tendensiya, ya'ni Nizomiy an'alarini tubdan o'zgartirishga harakat tendensiyasining bir namunasi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, fikrni savol-javob tarzida ifodalash an'anasi juda qadim tarixga ega. Eng qadimgi diniy kitoblarda ham munozara yoki savol-javob usulining ayrim namunalarini kuzatish mumkin. Bunday vositasi diniy kitoblarda ilohiy amr va tushunchalarni sharhlash, yetkazishning eng qulay vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur manbalarning bevosita ta'siri natijasida shakllangan Sharq islomiy adabiyoti, tasavvuf adabiyotida ham munozara yuqoridagi maqsadni majoz yo'li bilan ado etishning asosiy vositalaridan biri bo'lib xizmat qildi.

Sharq mumtoz adabiyotidagi eng mashhur munozaralardan biri bo'lgan Xusrav va Farhod dialogi ham faqat «...hokim tabaqaning jirkanchligi va ikkiyuzlamachiligini fosh qilish»dangina iborat bo'lmay tasavvufiy g'oyalarning o'ziga xos ifodasi sifatida ham qadrlidir.

Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostonidagi munozara asarning bir qator muhim jihatlarini o'zida aks ettiradi. Avvalambor, bu Nizomiy ijodiga xos bo'lgan realizmga moyillik, kuchli ijtimoiy pafos, mazmun ko'lamdorligi, mukammal she'riy mahorat kabilarda namoyon bo'ladi.

Amir Xusrav Dehlaviy o'z munozarasida Nizomiy an'analari, qarashlariga tayanadi. Biroq unda «Ishq» tushunchasining tasavvufiy mohiyati kuchayganligi, shu bilan birga oshiqning holatlarini tasvirlashda yangicha jozibadorlik va jo'shqinlik, «hind sehgari»ning o'ziga xos mo'jizakor bayon uslubi namoyon bo'ladi.

XV-XVI asrlarda yaratilgan “Xusrav va Farhod” yoki “Shirin va Farhod” munozaralarida Nizomiy yaratgan munozaraning an'anaviy shaki jiddiy o'zgarishlarga uchraganligi kuzatiladi. Bu holat akad.B.Valixojayev ta'kidlagan xamsanavislarning ikkinchi guruhi, ya'ni Nizomiy an'alarini eskirgan hisoblab, yangicha mavzular, yo'nalishlar yaratishga intilgan mualliflar ijodida ko'zga tashlanadi. Xususan, yuqorida tilga olingan Abdullo Hotifiy o'z dostonlarida ko'proq Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylarni tan olganligini ochiq izhor etgan.

3-BOB: ALISHER NAVOIY DOSTONIDAGI XUSRAV VA FARHOD MUNOZARASIDA AN'ANA VA BADIY MAHORAT

3.1. Xusrav va Farhod ziddiyati Alisher Navoiy talqinida.

Nizomiy Ganjaviy o'zining ilk dostoni «Maxzan ul-asror»ni yaratish jarayonidayoq, ulkan an'anaga asos solayotganligini his etib, unga ergashuvchilar bo'lishini bashorat qilgan edi:

Man, ki dar in manzilashon mondaam,
Marhalae peshtarak rondaam.

Teg' zi almosi zabon soxtam,
Har ki pas omad, sarash andoxtam.

Teg'i Nizomiy, ki sarandoz shud,
Kund nashud, garchi kuhansoz shud [59. 282].

Mazmuni: Menki bu manzilga hammadan oldin qadam qo'ydim, so'z olmosidan o'tkir tig' yasadim. Bu tig' ortdan keluvchilarning boshini tanasidan judo qiladi. Nizomiyning keskir qilichi qancha eskirsa ham, o'tkirligicha qolaveradi.

Nizomiy Ganjaviy asos solgan an'ana ijod ahli uchun chinakam imtihon maydoniga aylandi. Bu jarayon, ayniqsa, bir asr o'tib, Amir Xusrav Dehlaviyning «Xamsa»si dunyoga kelgach keng quloq yozdi. Ayni shu asardan keyin xamsa janr darajasiga ko'tarilib, uning nazariy qonuniyatlari shakllandi.

Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy yaratgan an'ananing xos davomchisi, o'zbek adabiyotining gultoqi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zining serqirra ijodida "Xusrav va Shirin" mavzusini ham nazardan chetda qoldirmadi. Alisher Navoiy «Xamsa» yozishga kirishgan paytda har bir dostonning mavzusi oldindan belgilangan edi. «Muhokamat ul-lug'atayn»da yozishicha

Navoiy «Farhod va Shirin» dostonini yaratishda ko'proq Xusrav Dehlaviyning «Shirin va Xusrav» dostoniga asoslanadi: “Yana chun «Farhod va Shirin» shabistonig'a xayolim yuz tutubdur, Mir Xusrav dami «Shirin va Xusrav» o'tidin charog'imni yoritibdur” [49. 120].

Navoiy doston muqaddimasida (IX bob) o'zigacha bu mavzuda yaratilgan rivoyatlarni aytib o'tadi. U bu mavzudagi manbalarni o'rganib, hali aytilmagan gaplar ko'p ekanligiga xulosa hosil qiladi:

Yetishgan el necha dur olg'an ermish,
Ne oliy qadr durlar qolg'an ermish.

Navoiyning ta'kidlashicha bu afsonalar asosida ishq va uning hijronu azoblari, dard va so'z (kuydirish)lari yotadi. Ammo:

Vale chekkanlar ushbu jomdin roh,
Sarosar bo'ldilar Xusravg'a maddoh. [46. 45]

Xusrav esa:

Bo'lib Shiring'a oshiq podshahvor,
Goh ul mahbub o'lub gohi parastor. [46. 46]

Shu tufayli Alisher Navoiy o'z asarining asosiy qahramoni qilib tarixiy Xusravni emas, afsonaviy Farhodni oladi va unigina Shirin ishqiga munosib, deb biladi:

Meni mahzungakim ishq etti bedod,
Solib g'am tog'ida andoqki Farhod.

Munosibdur agar tortib navoni,
Desam Farhodi mahzun dostoni. [46. 47]

Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da Xusrav haqida muxtasar tarzda o'ziga ma'lum bo'lgan tarixiy voqelikni bayon qiladi[49. 247-250]. “Hurmuz Parvez qasdig’a mashg’ul bo’lub, Parvez vahmdin qochib, Arman viloyatig’a bordi va Shiring’a oshiq bo’ldi. Parvez Madoyin taxtig’a o’lturub, ko’p mamolikni hiytayi tasarrufig’a kiyurdi. Va maknat va shavkati bir yerga yettikim, andin burung’i saloting’a muyassar bo’lmaydur erdi».

Navoiy tarixlarda ta’rif va tavsif etiladigan uning afsonaviy boyliklari (taxti, toji, Shabdiz oti, Borbad, «asrning a’lami» bo’lgan vaziri Buzurg Ummid, «ganji bodovard» (shamol keltirgan xazina) kabilar haqida ma’lumot beradi. Shu bilan birga «Va Shirindek mahbubi bor erdikim, olamda aningdek husnu latofat va jamolu malohat hyech kimda yo’q erdi». Navoiy tarixlardan izlab topgan eng muhim hodisa sifatida quyidagi ikki holatni qayd etadi: «Biri ulkim, agarchi Shirindek olamda nodirasi bor erdi, vale Farhoddek ham olam ajubasi raqibi bor erdikim, ishq va niyoz atrofidin bovujudi Xusravdek podshoh ko’ngli Farhodqa mayl qilib, iltifot va tarahhum zohir qildi. Va ani bilib Xusrav rashkdin makr bila Farhod qatlig’a bois bo’ldi».

Ikkinchidan, u payg’ambar Muhammad (a.s.)ning islomga da’vat qilib yozgan muborak maktublarini yirtib, bu bilan o’zining va sulolasining inqiroziga sabab bo’ladi. Alisher Navoiy bu haqda shunday deydi: «... ul hazrat (Muhammad (a.s.))din va islom da’vatig’a noma bitib kishi yibordi. Va ul (Xusrav) bu muzaxrafot (soxta boylik va mavqye) g’ururidin ul hazrat muborak nomasin yirtti va itoat qilmadi. Va o’z mulk va davlatig’a qasd qildi. Va hazrat mo’jizasidin mulkiga zavol dorib, Sheruyaki aning o’g’li erdi ma’mur bo’ldi. Mungakim Farhodning begunoh qatlig’a atosini qasos qildi».

Keltirilgan matnlardan ma’lum bo’ladiki, Alisher Navoiyning tarixiy Xusravga munosabati anchayin murakkab. Navoiy uni barcha manbalarda qayd qilinadigani kabi zolim shoh sifatida talqin etmagan. Biroq Xusravning davlat boshqaruvidagi xatolari hamda manfaatparastligini ochq oydin e’tirof etgan.

Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida ham biz shunday munosabatga duch kelamiz. Shoir uni o’quvchiga quyidagicha tanishtiradi:

Bu tarix ichra mag'rib hukmroni,
Ne mag'ribkim, jahon kishvarsitoni

Ajam birla arab mulkida dovar,
Arab birla ajamg'a shoh-u sarvar.

Shahe erdiki derlar oni Xusrav,
Mutii amri garduni sabukrav.

Jahon mulki tutub xayli sipohi,
Madoyin mulki oning taxtgohi.

Nasabda topibon Kisroga payvand,
Qayu payvand, farzandig'afarzand...

Oti Xusrav laqab otig'a Parvez,
Bu otu bu bu laqab shuhrat qilib tez.

Ulusqa irs birla hukmron ul,
Atodin to ato xusravnishon ul. [46. 283]

Bu baytlarda Navoiyning Xusravga subyektiv munosabati mutlaqo sezilmaydi. Asarda Xusrav xarakteri voqealar rivoji, asosan uning Shirin va Farhodga munosabati orqali oydinlashadi. Bu borada uning Farhod bilan munozarasi favqulodda ahamiyat kasb etadi.

Xusrav bilan Farhod o'rtasidagi munozara shu mavzudagi barcha dostonlarning "Farhod va Shirin"ga yaqinligini ko'rsatuvchi muhim belgilardan biridir. Ozarbayjon adabiyotshunosi M.Rafili Nizomiy va Navoiy asarlari xususida fikr bildirib, "ikki oshiq o'rtasida bo'lb o'tgan keskin aytishuvning maftunkorlik kuchi shu darajada ediki, Nizomiy mavzui bo'yicha o'z ona tilida doston yaratgan

ulug' o'zbek shoiri Navoiy shu o'rinlarga qo'l tegizmadi".³⁰ Ya'ni uning fikriga ko'ra Navoiy munozarani aynan tarjima qilgan. Biroq bu mavzudagi barcha dostonlarni tadqiq etgan Y.E.Bertels Navoiy dostonida "dramatizm, hatto, Nizomiyga qaraganda ham kuchaytirilgan"ligini alohida qayd etadi: "U yerda (Nizomiyda) Farhod faqat raqib bo'lsa, bu yerda – dushman, quolsiz, zanjirband dushman. Shuning uchun Farhodning tap tortmay qilgan javoblari Navoiyda **yanada katta kuch kasb etadi**" [14. 243]. Adabiyotshunos S.Erkinovning ta'kidlashicha: "...uchala muallif asarlaridagi lavhalar o'rtasidagi yaqinlik to'g'risida so'zlash bilan bilan bir qatorda o'rtadagi farqlar, har bir muallifning g'oyaviy niyati bilan bog'liq tomonlar, faktlarni umumlashtirishdagi mahorat haqida ham alohida fikr yuritishga to'g'ri keladi". Zero munozaralar orasidagi farq, oldingi bobda ham ko'rib o'tganimizdek, uni boshlashdan oldingi vaziyat, obrazlarning holatidayoq namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida munozara voqealar rivojlanib, kulminatsiya nuqtasiga yetgan bir paytda bo'lib o'tadi.

Akademik A.P.Qayumov Navoiy yaratgan Xusrav va Farhod munozarasiga shunday yuksak baho beradi: "Farhod bilan Xusrav o'rtasidagi dialog "Farhod va Shirin" dostonining, Navoiy she'riyatining, demak, butun o'zbek adabiyotining eng yorqin, eng mazmundor, eng go'zal va ta'sirli badiiy lavhasidir".³¹

Taniqli adabiyotshunos prof. A.Haitmetov Navoiy dostonida Farhod bilan Xusravning mashhur dialogi, Farhodning zanjirda turib zolim Xusravga so'z bilan hamla qilishi Xoja Yahyo bilan Tog'aytemur o'rtasidagi dialogni eslatib turadi, deb yozgan edi.³²

Xusravning xudbinligi, beburdligi uning Farhod bilan savol-javoblarida ayniqsa bo'rtib ko'zga tashlanadi. Farhod tog' ustidan turib hayqiriq bilan murojaat qilganida vahimaga tushib turgan shoh endi zanjirdagi Farhodga do'q-po'pisa bilan gap boshlaydi. Farhod esa ham jismonan (Xusrav butun qo'shini bilan uni yenga olmagan, faqat hiyla bilan qo'lga tushirgan) ham ma'naviy jihatdan ustun, shu

³⁰Рафили. Творчество Низами // Низами (Сборник научных статей). IV. Баку, 1947. Стр. 400.

³¹Qayumov A. "Farhod va Shirin" sirlari. – T.: G'afur G'ulomnomidagi Adabiyotvasan'atnashriyoti, 1979. 109-bet.

³²Hayitmetov A. Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan. – T.: Fan, 1970. 280-bet.

bilan birga, oldingi asarlardan farqli o'laroq, Shirin Xusravga emas Farhodga oshiq. Shu tufayli bu munozarada ishqiy mulohazalar zohiran so'z vositasida bir-birini yengishga intilish tarzida ifodalangan. Xusravning mensimay bergan savollariga Farhod ham kuchli kesatiq va kinoya bilan javob qaytaradi.

3.2. “Farhod va Shirin” dostonidagi munozara kompozitsiyasining o'ziga xosligi.

Alisher Navoiyga qadar turkiy adabiyotda munozaraning turli shakllari mavjud edi. Ular yuruk epik asarlar tarkibida (“Qisas ul-anbiyoyi Rabgo'ziy” tarkibidagi “Sulaymon va Qarinchqa”) yoxud alohida asarsifatida yaratilgan. Bular orasida Navoiy yaratgan munozaraga shaklan eng yaqin bo'lgan namuna Yusuf Amiriyning “Dahnoma” asari tarkibidagi shoir va notanish go'zal dialogidir:

Dedim: - Ey umr o'targ'a qilma rag'bat,

Dedi: - Gar umr o'tar, xush bil g'animat.

Dedim: - Turg'ilki, jonim uchra o'qtur,

Dedi: - Jong'a borurdin chora yo'qtur...

Dedim: - Jonimda shavqung g'ulg'uli bor,

Dedi: Har qanda guldur, bulbuli bor. [58. 144-145]

“Dahnoma” asarining ham Xusrav va Shirin haqidagi dostonlar vaznida (noma janri ham aslida shu vaznda yoziladi) ya'ni hazaji musaddasi mahzufda yozilganligi, muallif nutqi va ishqiy mazmun Yusuf Amiriy va Navoiy yaratgan munozaralar o'rtasida hamohanglikni yuzaga keltirgan. Demak Navoiy bu munozarani yaratishda nafaqat Nizomiy an'analari, balku turkiy she'riyat an'alaridan ham foydalangan.

“Farhod va Shirin” dostoni tarkibidagi Xusrav va Farhod munozarasining tabdili A. Hayitmetov tomonidan tayyorlangan dostonning nasriy bayonida

[50. 474-475] mavjud. Shuningdek, A.P.Qayumovning “Farhod va Shirin” sirlari: Ezgulik va sevgini ulug’lovchi motivlar” nomli kitoblarida munozaraning ancha batafsil sharhi berilgan. Biz ayrim baytlar sharhida yuqoridagi manbalardan foydalandik.

Dastlab munozaraning ayrim an’anaviy shakily jihatlarini haqida.

Alisher Navoiy dostonidagi munozara 25 bayt (50 misra)dan iborat. Misralarning 43 tasi “dedi”, 7 tasi (6 tasi Xusrav nutqi, bittasi Farhod nutqi) “dedikim” so’zlari bilan boshlanadi. Bu o’rinda ba’zan vazn talabi, ba’zan esa ta’kid ma’nosi ahamiyat kasb etgan. Xusravning nutqi so’roq gap (11 misra), buyruq gap (7 misra) hamda darak gap (7 misra) mazmunida bo’lsa, Farhod nutqi asosan darak (22 misra), shuningdek, buyruq-maslahat (2 misra) va so’roq (bir misra) mazmunidadir.

Munozara quyidagi misra bilan boshlanadi:

Dedi: Qaydin sen, ey majnuni gumrah.

Nizomiyning Xusravi dastlab “Qayerdansen?”, Amir Xusrav dostonida esa “Kimsan va nima bilan shug’ullanasan?” deb soragan edi. Navoiy dostonida esa “majnuni gumrah” (yo’lini yo’qotgan telba) birikmasi qo’shilgan. Bu esa Navoiy yaratgan Xusravning farqli jihatini ko’rsatuvchi ilk belgidir.

Dedi: Majnun vatandin qayda ogah?

«Ko’rinadiki, Xusrav ham, Farhod ham «majnun» degan so’zni tildan qo’ymaydi, lekin Xusrav buni kesatish ma’nosida ishlatadi, Farhod iftixor bilan bu sifatni o’ziga munosib biladi”. Munozaraning ilk baytlaridan boshlab kuchli ziddiyat seziladi. S.Erkinovning fikricha, Xusrav “Farhodni jinnilikda ayblab, suvni loyqalatib yuboradi” [38. 120], N.Komilov ta’birlaricha esa, Xusrav “majnun” so’zini “kesatish, kamsitish ma’nosida” ishlatadi” [23. 212].

Dedi: Nedur sanga olamda pesha?

Dedi: Ishq ichra majnunluq hamesha.

Dedi: Bu ishdin o'lmas kasbi ro'zi,

Dedi: Kasb o'lsa basdur ishq so'zi.

Dedikim: Ishq o'tidin de fasona,

Dedi: Kuymay kishi topmas nishona.

Dedikim: Kuymagingni ayla ma'lum,

Dedi: Andin erur joh ahli mahrum.

Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidagi munozaraning boshlang'ich qismi nihoyatda kuchli ishlangan bo'lib, bir necha baytda buyuk mutafakkir «yuz risola bo'lg'usi» katta falsafiy g'oyalarni bera olgan.

Keyingi baytlardan munozaraning ikkinchi qismi boshlanadi. Unda an'anaga ko'ra Farhodning Shiringa bo'lgan ishq tavsiflanadi. Bunda shoir salafining munozaralarida keltirilgan asosiy fikrlarni yanada kuchliroq va jozibaliroq tarzda ifodalaydi. Shu bilan birga, ularda bo'lmagan ariginal fikrlar ham mavjud. Jumladan, bunda Xusrav Farhodga boylik, mulk berib Shirin ishqidan voz kechishga undamoqchi bo'ladi:

Dedi: Ol ganju qo'y mehrin nihoniy,

Dedi: Tufroqqa bermon kimyoni.

Dedi: Kishvar beray kech bu havasdin,

Dedi: Bechora kech bu multamasdin.

Munozarada Navoi yuksak ruhiyatshunos sifatida ham namoyon bo'ladi. Farhodning har bir javobidan keyin Xusravda o'zga bir tabiiy holat, o'zgarish kuzatiladi:

Dedikim: Shahg'a bo'lma shirkat andesh,

Dedi: Ishq ichra tengdur shohu darvesh.

Dedikim: Dilbaringning de sifotin,

Dedi: Til g'ayratidin tutmon otin.

Salaflarning asarlaridagi Farhoddan farqli o'laroq, Navoiyning Farhodi nutqida tushkunlik, mahzunlik o'rnini ishqning fazilatlarini kuylovchi jo'shqin va ko'tarinki sartlar egallaydi.

Dedi: Ishq ahlining nedur murodi?

Dedi: Vasl ichra jonon iltifoti,

Dedi: Vaslig'a borsen orzumand?

Dedi: Bormen xayoli birla xursand.

Dedikim: Ishqig'a ko'nglung o'rundur?

Dedi: Ko'nglumda jondek yoshurundur.

Dedi: No'shi labidin topqay el bahr?

Dedi: Ul no'shdin el qismidur zahr.

Navoiy dostonidagi Farhod ham o'z maqsadi yo'lida barcha sinovlarga tayyor. Yorning har bir ishi, hatto jabru-jafosi ham oshiqqa rohat bag'ishlaydi. Oldingi munozaralarda asosiy qismni tashkil etgan bu fikrlar Navoiy dostonida nisbatan qisqaroq, biroq yanada kuchliroq tarzda aks etgan.

Quyida ayrim baytlarni solishtirib ko'ramiz:

Amir Xusrav.

Biguft: Ar z-o' ba jon boshad ziyone?

Biguft: Arzon buvad javrash ba jone.

Alisher Navoiy:

Dedi: Joningni olsa la'li yodi?

Dedikim: Ushbudur jonim murodi.

Nizomiy Ganjaviy.

Bigufto: Do'stish az tab'b ugzor.

Biguft: Az do'ston n-oyad chunin kor.

Amir Xusrav.

Biguftash: Dur kun z-on do'st yori,

Biguft: In nest sharti do'stdori.

Alisher Navoiy:

Dedi: Bu ishq tarki yaxshiroqdur.

Dedi: Bu sheva oshiqdin yiroqdur.

Nizomiy Ganjaviy

Bigufto: Dar g'amash metarsi az kas?

Biguft: Az mehnati hijroni o' bas.

Alisher Navoiy:

Dedi: Oshiqqa ne ish ko'p qilur zo'r?

Dedi: Furqat kuni ishq balosho'r.

Munozaraning so'nggi baytlari Xusrav va Farhod ziddiyatining mantiqiy xulosasidir. Xusravning savollari «nechokim mushkul» bo'lsa-da, Farhod ularga «base oson» javob beradi. Tabiiy ravishda oxirgi chora – Farhodni o'lim jazosi bilan qo'rqitish qoladi:

Dedi: Ishq ichra qatling hukm etgum.

Dedi: Ishqida maqsudimg'a yetkum.

Dedi: Bu ishda yo'q sendin yiroq qatl.

Dedi: Bu so'zlaringdin yaxshiroq qatl.

“Farhod va Shirin” dostoni tarkibidagi munozarani qiyosan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy munozara yaratish bilan bog'liq mavjud an'anani, munozaraning shakily-kompozitsion belgilarini (hajmi, muallif va obrazlar nutqi, uslub) to'raligicha saqlab qoladi. Biroq, Navoiy asarida munozaraning ritmikasi, shiddati, obrazlar ruhiyatining aks etishi, baytlar aro tadrijiylik bir pag'ona oshganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Navoiy dostonidagi Farhod nutqini salaflar asarlarifagi misralar bilan qiyoslash natijasida unda yangi-yangi mazmun boyliklari, yangi g'oyalar aks etganligini ko'rishimiz mumkin.

3.3. Munozarada muallif dunyoqarashi va badiiy mahorati.

Navoiy o'zining barcha asarlarida «Ishq agar komil erur oshiq qilur ma'shuqni...», degan aqidaga asoslanadi va Xusrav ishqi komil bo'lmagani singari ma'shuq ham bo'lolmasligini ta'kidlaydi. Boshqacha qilib aytganda, u ishq tushunchasini ifodalashda oshiq bilan ma'shuq bir-biriga munosib bo'lishi lozim deb hisoblaydi. Chunki bundan maqsad:

Nedin oshiqni o'rtar shayni ma'shuq,

Chu oshiq munda keldi ayni ma'shuq.

Yoxud: «O'zi naqsh-u o'zi manqush-u naqqosh» ekanligini majoz yo'li bilan ifodalashdir. Shularni hisobga olgan holda Navoiy «tasvir» «dilkash» bo'lishi uchun mavjud rivoyatlarning «avzoig'a tag'yir» qilishga majbur bo'ladi:

Zaruratkim solib bir o'zgacha tarh,
Bu mehnatnomani qilg'umdurur sharh. [46. 46]

Dostonning 2-bobida Allohning sifatlari haqida gapirilib, ayrim ilohiy, falsafiy tushunchalar asar qahramonlari, obrazlari nomi bilan majoziy tarzda ifodalanadi. Bu haqda akad. A. Rustamov shunday yozadi: “Navoiy qazoni Farhodga aloqador Besutun tog'iga, aqlni Chin Xoqonining vaziri Mulkoroga, va Suqrotga, tunni Xusrav Parvezning oti Shabdizga, qadarni Farhodning do'sti Shopurga, ajalni otasini o'ldirgan Parvezning o'g'li Sheruyaga, zamonni Parvezning sozandasi Nakisoga o'xshatgan holda... muqaddimani dostonning mundarijasiga uyg'unlashtirgan” 29. 149]. Bu tavsifga birgina izoh kiritish mumkin:

Qilib hikmat xirad Suqroti qismi,
Yasab jon ganjiga paykar tilismi. [46. 11].

Demak Suqrot bu o'rinda hikmatning timsoli sifatida tilga olinadi.

Bular bir qarashda oddiy tashbeh yoki so'z o'yini, tasvir vositasiga o'xshaydi. Biroq asarda yashiringan g'oyalar tizimini ochish uchun, bizningcha, aynan shu tushunchalar kalit vazifasini bajaradi. Mavzu talabidan kelib chiqib, mazkur bobda asosiy qahramonlar tilga olingan baytlargagina e'tibor qaratmoqchimiz.

Alloh bu dunyoning har bir zarrasida ishqni oshkor etib, inson ko'nglini ishq xazinasini qildi va bu ishqni junbushga keltiruvchi husn yaratdi. Boshqacha qilib aytganda, o'z husnini zuhur ettirdi:

Valekin husn o'tin aylab jahonso'z,
Bularni andin etti olamafro'z.

Ayni shu yerda Navoiy Shirin nomini tilga oladi:

Ne mahvash husnig'akim berdi tazyin,
Ani aylab jahon ahlig'a Shirin.

Demak, Navoiy husn tushunchasini yoxud tangri zuhurini Shirin nomi bilan, bu husnga shaydo bo'lib «balo tog'i» (foniy dunyo)da azob chekan insonlarni umumlashtirib Farhod nomi bilan ataydi:

Yeturganga balo tog'ida bedod,
Laqab aylab zamona ichra Farhod.

Bundan ma'lum bo'ladiki, asardagi Shirin faqat oddiy ma'shuqa obrazi emas, balki azaliy husn, zuhurining majoziy timsoli, Farhod esa shu azaliy husnning azaliy shaydosi, boshqacha qilib aytganda, vaqtinchalik ajralgan butunlik. Chunki:

Nedin oshiqni o'rtar shayni ma'shuq,
Chu oshiq munda keldi ayni ma'shuq.

Ikisi balki ayni ishq, fafham,
Tugandi barcha so'z, vallohu a'lam...

O'zi naqshu, o'zi manqushu naqqosh,
Kishi bu sirni mendek qilmadi fosh.

Chindan ham oldingi asarlarda bunday fikrlar ayrim ishoralar tarzida mavjud bo'lsa-da, oshkora bayon qilinmagan edi. Tasavvufshunos va navoiyshunos olim N.Komilov dostonning shu xususiyatiga e'tibor qaratib uning maqsadi «ilohiy ishq» «dardini kuylash», «Farhod esa ana shu ilohiy ishqqa muhtalo solikdir» deb yozadi. Shirin esa «Farhodning majoziy ishq uchun mazhar»dir [23. 210-211].

Olim «Farhod va Shirin» dostonini tasavvuf yo'liga kirgan solikning riyozat chekib tariqat bosqichlarini bosib o'tishi va ilohiy ishq, vahdat ul-vujudga erishuvining romantik tarzda badiiy ifodalanishi deya baholaydi. Xusrav esa "ilohiy ishqdan mahrumlik, dunyoviy zulmning timsoli". Uning ishq "Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"da bayon etgan ishq "marotib"laridan birinchisi – avom ishqiga to'g'ri keladi" [23. 210]. Olimning fikriga ko'ra, Navoiy "Farhod bilan Xusrav "munozara"sida ishq haqidagi ikki xil tushunchani qiyoslaydi. Bu munozara dostonning o'zagidir. Navoiy dunyoqarashi, maqsad-muddaosi xuddi shu yerda aniq ifodalangan" [23. 211].

Asardagi Xusrav va Farhod munozarasini tahlil qilish jarayonida shu fikrni tasdiqlovchi va rivojlantiruvchi ishoralarga duch kelamiz.

Dedi: Qay chog'din o'lding ishq aro mast?

Dedi: Ruh ermas erdi tang'a payvast.

Ushbu baytda Navoiy dostonning ikkinchi bobida aytgan g'oyasini Farhod tilidan yana bir bor tasdiqlaydi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Nizomiy Ganjaviyning Farhodi so'nggi nafasiga qadar, ya'ni to tirik ekan Shiringa oshiq edi:

Bigufto: Dil zi mehrash kay kuni pok?

Bigufto: On gah, ki bosham xufta dar xok.

Mazmuni: *Aytdi: Ko'nglingni uning mehridan qachon tozalaysan?*

Aytdi: Jismim tuproqqa qorishgandan keyin.

Xusrav Dehlaviy Farhodining ishq esa o'lgandan keyin ham davom etadi:

Bigufto: Az ishq o' to kay xo'ri g'am?

Bigufto: To ziyam, dar murdagi ham.

Mazmuni: *Aytdi: Uning ishqida to kaygacha g'am chekasan?*

Aytdi: To tirikman, hatto o'lgandan keyin ham.

Alisher Navoiy mazkur g'oyaning yangicha talqinini yaratdi. Uning Farhodi moddiylik kasb etmasidan oldin, ruh bilan tana birlashmasidan oldin oshiq edi. Bunda shoir «alast» voqyeasiga ishora qilganligi seziladi. Chindan ham Farhod tug'ilgandanoq, ishq dardiga chalinganligi ayon edi:

Yuzinda ishq asrori yozilg'on,
Ichinda dard ta'vizi qozilg'on.

Jaloliddin Rumiy: «Boshi va oxiri bo'lgan hamma narsa surat va qolipdir», deb yozadi [57]. Farhodning ishq ixtidoga ham intihoga ham ega emas, u ilohiyot kabi azaliy va abadiydir.

Dedikim: Kuymagingni ayla ma'lum,
Dedi: Andin erur joh ahli mahrum.

Mazkur bayt Navoiyning munozaraga kiritgan yangi, muhim g'oyalaridan biri bo'lib, unga ko'ra «joh» ahli «kuymak» saodatidan mahrum. Ammo bu baytda Navoiy «joh»ni faqat suratda emas, siyratda ham kasb qilgan kishilarni nazarda tutmoqda. Chunki zohiran katta mansabdagi kishilar ham ba'zan ishq martabasiga erishishi mumkin. Buning uchun «shohlar darveshi-yu, darveshlar shohi» bo'lmoq lozim. Oshiq bo'lmish bu dunyo zanjirlarini uzib tashlashi kerak bo'ladi. Mansab egasi esa bu ishni (o'zi xohlagan taqdirda ham) qilishi mushkul.

Magistrlik ishining uchinchi bobida tahlil etilgan materiallar asosida quyidagi qisqacha xulosalarni keltirish joiz topildi.

Alisher Navoiyga qadar turkiy adabiyotda munozaraning turli shakllari mavjud edi. Ular yuruk epik asarlar tarkibida («Qisas ul-anbiyoyi Rabgo'ziy» tarkibidagi «Sulaymon va Qarinchqa») yoxud alohida asarsifatida yaratilgan. Bular orasida Navoiy yaratgan munozaraga shaklan eng yaqin bo'lgan namuna Yusuf Amiriyning «Dahnoma» asari tarkibidagi shoir va notanish go'zal dialogidir.

«Farhod va Shirin» dostoni tarkibidagi munozarani qiyosan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy munozara yaratish bilan bog'liq mavjud

an'anani, munozaraning shakily-kompozitsion belgilarini (hajmi, muallif va obrazlar nutqi, uslub) to'raligicha saqlab qoladi. Biroq, Navoiy asarida munozaraning ritmikasi, shiddati, obrazlar ruhiyatining aks etishi, baytlar aro tadrijiylik bir pag'ona oshganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Salaflarning asarlaridagi Farhoddan farqli o'laroq, Navoiyning Farhodi nutqida tushkunlik, mahzunlik o'rnini ishqning fazilatlarini kuylovchi jo'shqin va ko'tarinki sartlar egallaydi. Munozarada Navoi yuksak ruhiyatshunos sifatida ham namoyon bo'ladi. Farhodning har bir javobidan keyin Xusravda o'zga bir tabiiy holat, o'zgarish kuzatiladi. Navoiy dostonidagi Farhod nutqini salaflar asarlarifagi misralar bilan qiyoslash natijasida unda yangi-yangi mazmun boyliklari, yangi g'oyalar aks etganligini ko'rishimiz mumkin.

XULOSA

Yuqorida ko'rib o'tilganidek, "Xusrav va Shirin" mavzusidagi dostonlarni aniqlash, o'rganish va qiyoslashga doir jahon adabiyotshunosligida XIX asrning oxirlaridan boshlab ko'plab ilmiy-tanqidiy asarlar, monografiyalar yozilgan. Xususan, chex olimi G.Dudaning «Farhod va Shirin», rus olimlari A.E.Krimskiy va I.Braginskiyning fors-tojik adabiyoti tarixiga bag'ishlangan qator asarlarida shu mavzuga doir ayrim fikrlar bildirilgan. XX asr navoiyshunosligining poydevorini qo'ygan olimlardan biri Y.E.Bertels o'zining "Nizomiy" va "Navoiy" monografiyalarida shu mavzudagi dostonlar tavsifiga ham alohida o'rin ajratgan. Bu borada, ayniqsa, G.Y.Alievning "Sharq xalqlari adabiyotida Xusrav va Shirin afsonasi", G'.Begdelining «Sharq adabiyotida «Xusrav va Shirin mavzusi» va o'zbek adabiyotshunos olimi S.Erkinovning «Navoiy «Farhod va Shirin»i va uning qiyosiy tahlili» nomli monografiyalarini qayd etib o'tish lozim.

Adabiyotshunoslikda Alisher Navoiy yaratgan munozarani Nizomiy Ganjaviy dostonidagi munozaraning tarjimasi deya baholash holatlari ham kuzatilgan. Biroq bunday fikrning g'ayriilmiy ekanligi. Y.E.Bertels va S.Erkinov tomonidan inkor etilgan edi.

Akademik Navoiy yaratgan Xusrav va Farhod munozarasiga shunday yuksak baho beradi: "Farhod bilan Xusrav o'rtasidagi dialog "Farhod va Shirin" dostonining, Navoiy she'riyatining, demak, butun o'zbek adabiyotining eng yorqin, eng mazmundor, eng go'zal va ta'sirli badiiy lavhasidir" [8. 109].

Taniqli adabiyotshunoslar A.P.Qayumov, A.Haitmetov, B.Valixo'jayevva boshqa bir qator olimlarning ishlarida ham mazkur munozara badiiyatiga doir fikr-mulohazalar mavjud. Xususan, munozaralarning bevosita qiyosiy tahliliga oid qarashlar S.Tohirovning so'nggi yillarda e'lon qilgan ilmiy maqolalarida ham o'z ifodasini topgan.

Biroq, aytilganlardan qat'i nazar, barcha munozaralarni baytma-bayt qiyosan tadqiq etish, chog'ishtirmavjud ilmiy manbalarda kuzatilmaydi.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida musulmon Sharqi adabiyoti tarixidagi eng go'zal adabiy an'analardan biri bo'lgan Xusrav va Farhod munozarasining genezisi, shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, kompozitsion va g'oyaviy takomili masalalari va bu jarayonda ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarining favqulodda iste'dod namunasi ekanligi, bu iste'dod va yuksak tafakkurning namoyon bo'lish vositalari haqida imkon qadar mulohaza yuritdik.

Magistrlik ishi doirasida bajarilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi umumlashma xulosalarga kelindi.

Eron sosoniylarining mashhur vakili Xusrav II Parviz Sharq xalqlari trixi va badiiy ijodida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan shaxslardandir. Xusrav shxsiyati va timsoli tilga olinadigan manbalarni to'rt guruhga ajratish mumkin:

1. Tarixiy va solnoma asarlar (Simokatta, Sebeos, "Suriya anonym solnomasi, Tabariy, Bal'amiy, Yoqut asarlari va h.k.).
2. Ishqiy-romantik dostonlar (Firdavsiy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Qutb, Orif Ardabiliy, Alisher Navoiy va boshqalarning dostonlari).
3. Turli janrlardagi lirik asarlar Qatron Tabreziy, Xoqoniy va boshqa shoirlarning she'rlari).
4. Axloqiy-falsafiy asarlardagi tamsil-hikoyatlar (Nizomulmulk, Jomiy, Navoiy yaratgan hikoyatlar).

Xusravning ilk badiiy timsolini yaratgan shoir Abulqosim Firdavsiy bo'lsa, Farhod timsolining adabiyotga kirib kelishi va Xusrav bilan Shirin o'rtasidagi sujet voqealarida mustahkam o'rin tutishi, shu jumladan Xusrav bilan Farhod munozarasining ilk namunasi Nizomiy Ganjaviy ijodi bilan bog'liqdir.

Alisher Navoiyga qadar Xusrav va Farhod ziddiyati murakkab bosqichlarni bosibo'tdi. Jumladan, Xusrav Dehlaviy dostonida Xusravni ijobiy qahramon sifatida gavdalantirish an'anasi davom etgan bo'lsa, Orif Ardabiliyning "Farhodnoma" dostonida bu timsol salbiy xususiyatlar kasb eta boshladi. Shu bilan birga Farhod timsolining mazkur sujetdagi mavqei ham tobora ortib bordi.

Ffikrni savol-javob tarzida ifodalash an'anasi juda qadim tarixga ega. Eng qadimgi diniy kitoblarda ham munoza yoki savol-javob usulining ayrim

namunalarni kuzatish mumkin. Bunday vositasi diniy kitoblarda ilohiy amr va tushunchalarni sharhlash, yetkazishning eng qulay vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur manbalarning bevosita ta'siri natijasida shakllangan Sharq islomiy adabiyoti, tasavvuf adabiyotida ham munozara yuqoridagi maqsadni majoz yo'li bilan ado etishning asosiy vositalaridan biri bo'lib xizmat qildi.

Xusrav, Shirin va Farhod obrazlari tarixi, ularning adabiyotga kirib kelishi va taraqqiyotini u yoki bu darajada yoritadigan ko'plab ilmiy asarlarda Xusrav va Farhod munozarasi asarning eng muhim, boshqacha qilib aytganda, kulminasiyasi ekanligi e'tirof etiladi. Biroq ilmiy manbalarda mazkur munozara atroflicha qiyosiy tarzda tahlil etilmagan.

Bizga ma'lum bo'lgan ushbu mavzudagi dostonlarning barchasida bu munozara deyarli bir xil joyda va bir xil shaklda kelgan yagona epizod ekanligini inobatga olsak, har bir ijodkor unga shunchaki voqealar tizimining bir elementi sifatida emas, maxsus yondashganligini aniqlash qiyin emas. Shunday ekan, bu munozaralarni maxsus, qiyosiy o'rganish har bir muallifning dunyoqarashidagi mushtaraklik va o'zida xoslikni, ularning hayot, inson va ilohiyot, ishq tushunchalarini qanday tushunishini aniqlash, ikkinchi tomondan esa, har bir ijodkorning badiiy mahoratiga baho berish imkoniyatini yaratadi.

Nizomiy Ganjaviy yaratgan Xusrav va Farhod munozarasi asar ichida asar xususiyatiga ega bo'lgan noyob topilmadir. Avvalambor, bu Nizomiy ijodiga xos bo'lgan realizmga moyillik, kuchli ijtimoiy pafos, mazmun ko'lamdorligi, mukammal she'riy mahorat kabilarda namoyon bo'ladi. Bu munozarada faqat hukmdor va oddiy hunarmand orasidagi ziddiyat emas, ikki xil dunyoqarashdagi oshiqning, ikki turdagi ishqning ziddiyati, qolaversa, ijodkorning ishq va u bilan bog'liq falsafiy tushunchalarni idrok etish darajasi aks etgan.

Amir Xusrav Dehlaviy munozarasining tahlilidan ma'lum bo'ladiki, shoir ko'p jihatdan Nizomiy an'analari, qarashlariga tayanadi. Biroq uning munozarasida «Ishq» tushunchasining tasavvufiy mohiyati kuchayganligi, uning yangi talqinlari namoyon bo'lganligi kuzatiladi. Shu bilan birga oshiqning holatlarini tasvirlashda

yangicha jozibadorlik va jo'shqinlik, «mo'jiz bayonliq sohiri Hind» (Navoiy)ning o'ziga xos mo'jizakor bayon uslubi namoyon bo'ladi.

Munozaraning Nizomiy Ganjaviy yaratgan an'anaviy shakli XVI asrga kelib jiddiy o'zgarishlarga uchradi. Uning kompozisiya nuqtai nazaridan yangi-yangi shakllari kashf etildi. Xususan, Abdulloh Hotifiy munozaraning yangi ariginal shaklini yaratadi. Unda muallif nutqi har xil tarzda, goh misra boshida, goh o'rtasida keladi. Bu esa munozaraga yangicha ritm, jarangdorlik baxsh etgan. Binobarin, bu davrga kelib munozaraning faqat mazmuni emas, shakily rang-barangligi ham yuzaga keldi. Bu esa nafaqat bu munozara, yoxud shu mavzudagi dostonlarga xos bo'lgan holat, balki xamsanavislik an'anasining XVI asrdagi taraqqiyotiga xos bo'lgan tendensiya, ya'ni Nizomiy an'alarini tubdan o'zgartirishga harakat tendensiyasining bir namunasi sifatida namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiyga qadar turkiy adabiyotda munozaraning turli shakllari mavjud edi. Ular yuruk epik asarlar tarkibida ("Qisas ul-anbiyoyi Rabgo'ziy" tarkibidagi "Sulaymon va Qarinchqa") yoxud alohida asarsifatida yaratilgan. Bular orasida Navoiy yaratgan munozaraga shaklan eng yaqin bo'lgan namuna Yusuf Amiriyning "Dahnoma" asari tarkibidagi shoir va notanish go'zal dialogidir.

"Farhod va Shirin" dostoni tarkibidagi munozarani qiyosan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy munozara yaratish bilan bog'liq mavjud an'anani, munozaraning shakily-kompozitsion belgilarini (hajmi, muallif va obrazlar nutqi, uslub) to'laligicha saqlab qoladi. Biroq, Navoiy asarida munozaraning ritmikasi, shiddati, obrazlar ruhiyatining aks etishi, baytlar aro tadrijiylik bir pag'ona oshganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Salaflarning asarlaridagi Farhoddan farqli o'laroq, Navoiyning Farhodi nutqida tushkunlik, mahzunlik o'rnini ishqning fazilatlarini kuylovchi jo'shqin va ko'tarinki sartlar egallaydi. Munozarada Navoi yuksak ruhiyatshunos sifatida ham namoyon bo'ladi. Farhodning har bir javobidan keyin Xusravda o'zga bir tabiiy holat, o'zgarish kuzatiladi. Navoiy dostonidagi Farhod nutqini salaflar asarlarifagi misralar bilan qiyoslash natijasida unda yangi-yangi mazmun boyliklari, yangi g'oyalar aks etganligini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Siyosiy va mafkuraviy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma`naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e`tibor - ma`naviyatga, kelajakka e`tibor.- Toshkent: O`zbekiston, 2009.
3. O`zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» // Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997.
4. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. - Т.: Янги авлод, 2001.- 184 б.

II. Ilmiy adabiyotlar

5. АбдувоҳидоваМ. Ўзбекадабиётидамунозара. –Тошкент: Фан, 1984.
- 6.Абдуғафуров А. Буюк бешлик сабоқлари. - Т., 1995.
7. Адабиётшунослик терминлари луғати (НюМаллаев таҳрири остида). – Т.: Ўқитувчи, 1967.
8. Алиев Г.Ю. Легенда о Хусраве и Ширин в литературах народов Востока. - М.: Наука, 1960.
9. Алиев Г.Ю. Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока. – М.: Наука, 1985.
10. Алишер Навоий «Хамса»си. Тадқиқотлар. – Т.: Фан, 1986.
11. Арасли Ҳ. Низомий ва Навоий // “Гулистон” журнали, 1940-йил, 4-сон;
12. Арасли Ҳ. Навоий меросини ўрганиш тарихидан // Тил ва адабиёт масалалари. 1960-йил, 3-сон.
13. Бегдели Ғ. Шэрг эдэбијјатында «Хосров вэ Ширин» мөвзусу. - Бакы: Елм, 1970.
14. Бертельс. Е.Э.Навоий (Рус тилидан И.Мирзаев таржимаси). – Т: Тафаккур қаноти, 2015.
15. Бертельс. Е.Э. Избранные труды. Низами и Фузули. – М.: Издательство восточной литературы, 1962.

16. Бертельс. Е.Э. Избранные труды. Наваи и Жами. – М.: Наука, 1965.
17. Бертельс. Е.Э. История персидско-таджикской литературы. – М.: Наука, 1960.
18. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи (Ўқув қўлланма). II қисм. – Сам.: СамДУ нашри, 2002.
19. Валихўжаев Б. Валихўжаев Б.Н. Хамса такмили. Алишер Навоий «Хамса»си. Тадқиқотлар. – Т.: Фан, 1986. 81-89 б.
20. Valixojayev B. Mumtoz siymolar. – Т.: A.Qodiriy, 2002.
21. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (O'quv qo'llanma) – Т.: Yangi asr, 2006.
22. Жалолов Т. Хамса талқинлари. – Т., 1961.
23. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. – Тошкент: Ёзувчи, 1996.
24. Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т.: Маънавият, 2005.
25. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1976.
26. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Фан, 2005.
27. Низами (Сборник научных статей). IV. Баку, 1947.
28. Очилов Э. Барҳаёт сиймолар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012.
29. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Фан, _____. 149-бет.
30. Рустамов А. XIV аср Хоразм ёдномалари. – Тошкент: Фан, 1973.
31. Рустамов Э. Узбекская поэзия первой половины XV века. – М.: Изд. Вос. Литер., 1963.
32. Салоҳий Д. Навоий назмиёти (Ўқув қўлланма). – Тошкент, 2012.
33. Салоҳий Д. Навоий эпик шеърляти (Услубий қўлланма). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011.
34. Тоҳиров С. Хусрав ва Фарҳод мунозарасининг қиёсий типологиясига доир мулоҳазалар. Тил ва адабиёт муаммолари. – Сам.: СамДУ нашри, 2013. 23-31-бетлар
35. Тоҳиров С. Форс-тожик ва туркий дostonчиликда Хусрав ва Фарҳод мунозараси. Ўзбек ва Шарқ халқлари адабиётида эпик анъана: миллий

талқин масалалари. Халқаро илмий анжуман. – Тошкент: ТошДШИ наشري, 2014. 186-192-бетлар.

36. Тоҳиров С. Хамсанависликнинг илк қоидаси хусусида. СамДУ «Илмий ахборотнома»си. 2013 йил 4-сон. 57-61 бетлар.
37. Шомухаммедов Ш. Форс-тожик адабиёти классиклари. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1963.
38. ЭркиновА. Алишер Навоий «Хамса»си талқинининг 15-20 аср манбалари. Док.диссерт. автор -Тошкент, 1998.
- 39.Эркинов С. Навоий «Фарҳод ва Ширин»и ва унинг қиёсий таҳлили. - Тошкент: Фан, 1971.
- 40.Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1971.
41. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 2-том. – Т.: Фан, 1974.
42. Қайумов А. «Фарҳод ва Ширин» сирлари. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1979.
43. Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. - Т.: Фан, 1993.
- 44.Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. – Т.: Фан, 1970. 280-бет.

IV. Adabiy manbalar

45. Алишер Навоий. Хамса (Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев). – Т.: ЎзбФА наشريёти, 1958. 7-1662-сах.
46. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. Саккизинчи том. Фарҳод ва Ширин (Нашр тайёрл.С.Ғаниева). – Т.: Фан, 1991. 7-478- б.
- 47.Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. Тўққизинчи том. Лайли ва Мажнун. – Т.: Фан, 1992.
- 48.Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 14-том (Маҳбуб ул-қулуб). – Тошкент: Фан, 1998.
- 49.Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 16-том (Муҳокамат ул-луғатайн.Тарихи мулуки Ажам).– Тошкент: Фан, 2000.

50. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G'.G'ulomnomidag inashriyot-matbaaijodiyuvi, 2006.
51. Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома (Танланган дostonлар). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1984. 633-679-бетлар.
52. Фирдавсий. Шоҳнома. Жилди VIII. - Душанбе: Ирфон, 1966.
53. Фирдавсий. Шоҳнома. Жилди IX. - Душанбе: Ирфон, 1966.
54. Абдуллоҳ Хотифий. Ширин ва Хусрав. - Душанбе: Дониш, 1981.
55. Амир Хусрау Дихлави. Ширин и Хусрау (Критический текст и предисловие Г.Ю.Алиева). – М.: Наука, 1966. – ۱۳۶۱ саҳ.
56. Амир Хусрави Дехлави. Осори мунтахаб. Жилди якум. Ширин ва Хусрав. – Душанбе: Ирфон, 1971. 7-230-саҳ.
57. Жалолiddин Румий. Ичиндаги ичиндадур (Улуғбек Ҳамдам таржимаси). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013.
58. Навоийнинг нигоҳи тушган. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. 144-145-бетлар
59. Низомии Ганжави. Куллиёт. Жилди якум. Хусрав ва Ширин (Нашрга тайёрловчи З.Аҳрорий). – Душанбе: Ирфон, 1983. 24-412-саҳ.
60. Низомулмулк. Сиёсатнома. – Дйшанбе: Адиб, 1989.
61. Қутб Хоразмий. Хусрав ва Ширин. Уч булбул гулшани. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1986. 331-618-бетлар.

MUNDARIJA

KIRISH	3
2- bob: Xusrav va Farhod timsollari tarixi va badiiyati	11
1.1. Xusrav va Farhod timsollarining tarixiy va badiiy ildizlari.....	11
1.2. Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostonida Xusrav va Farhod timsollari.....	22
1.3. XIII-XV asrlar adabiyotida Xusrav va Farhod ziddiyatining badiiy talqinlari.....	30
 2-bob: Xusrav va Farhod munozarasining yaratilishi va badiiy taraqqiyoti.....	 39
2.1. Munozara badiiy asar kompozitsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida.....	39
2.2. Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostonida Xusrav va Farhod munozarasi.....	44
2.3. Xusrav va Farhod munozaralarida an’ana va ijodiylik.....	51
 3-bob: Alisher Navoiy dostonidagi Xusrav va Farhod munozarasida an’ana va badiiy mahorat.....	 60
3.1. Xusrav va Farhod timsollari Alisher Navoiy talqinida.....	60
3.2. “Farhod va Shirin” dostonidagi munozara kompozitsiyasining o’ziga xosligi.....	65
3.3. Munozarada muallif dunyoqarashi va badiiy mahorati.....	70
 XULOSA.....	 76
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	80